

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**«Himoyaga ruxsat etilsin»**

Ijtimoiy – iqtisodiy fakultet dekani

\_\_\_\_\_ t.f.n., N. Dexkanov

20 \_\_\_\_\_ y. « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

5111600 – «Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi» yo‘nalishi  
kunduzgi bo‘lim 4-kurs MIG-72-14 - guruh talabasi

**AHMADXO‘JAEV MUHAMMADXON ZUNNUNXO‘JA O‘G‘LI**

**“Ijtimoiy himoyani fuqarolik huquqiy shartnomalar orqali amalga  
oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari”  
mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar: yu.f.n.dots. M.A.Akayeva**

**“Himoyaga tavsiya etildi”**

“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”  
kafedrası mudiri O.V.Mamatov

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018 y.

**Namangan - 2018**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3-8</b>
<b>I-BOB. IJTIMOY HIMOYA TUSHUNCHASI VA UNING FUQAROLIK HUQUQIY ASOSLARI.....</b>	<b>9-34</b>
I.1. O‘zbekistonda ijtimoiy himoya siyosati va uning asosiy taraqqiyot tendensiyalari.....	9-18
I.2. Nodavlat ijtimoiy himoyasi va uning fuqarolik huquqiy asoslari tavsifi.....	18-34
<b>II-BOB. NODAVLAT IJTIMOY HIMOYASI VA UNI AMALGA OSHIRISHNING SHARTNOMAVIY YO‘LLARI.....</b>	<b>35-58</b>
II.1. Ijtimoiy himoya va fuqarolik huquqiy shartnomalardan foydalanish masalalari.....	35-45
II.2. Ijtimoiy himoyaga oid fuqarolik huquqiy shartnomalar, ularning mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari.....	45-58
<b>XULOSA.....</b>	<b>59-63</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>64-68</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan yaratuvchanlik ishlari tufayli yurtimiz qiyofasi, odamlarimizning kundalik turmush darajasi tobora yaxshilanib bormoqda. Iqtisodiy taraqqiyotimiz ko‘rsatkichlaridagi dinamizm bozor munosabatlari tomon yuksalishi obyektiv xususiyat kasb etayotganidan darak beradi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti tashabbusi va taklifi bilan 2007 yilni “Ijtimoiy himoya yili” deb e‘lon qilinishi, shu munosabat bilan “Ijtimoiy himoya yili” Davlat dasturini qabul qilinishi<sup>1</sup> iqtisodiy va madaniy taraqqiyotimiz darajasiga mos ravishda davlatimizning insonparvarlik qiyofasi yanada ko‘proq namoyon bo‘layotganligini ko‘rsatdi

Mamlakatimiz taraqqiyotiga mutanosib ravishda aholining ijtimoiy himoyasi yanada keng qamrovli tus olayotganligi, uning shakli hamda usullarining tobora rang-baranglashib borayotganligi bu sohadagi ijtimoiy munosabatlar diapazoni ham kengayishiga, bunday munosabatlarning chuqurlashuviga olib kelmoqda.

Respublikamiz Prezidenti Sh M.Mirziyoyevning: “Qachon xalqimiz bizdan rozi bo‘ladi, qachonki uning turmushi yaxshilansa , ijtimoiy jihatdan himoyasi va ijtimoiy adolat prinsipi amalda namoyon bo‘lsa , qishloq aholisi bizdan minnaddor bo‘lsa shunda biz ko‘zlagan maqsadimizga erishgan bo‘lmiz . Ya’ni xalqni roziligi va rahmatiga ega bo‘lamiz”<sup>2</sup>-degan ta’kidladi o‘z ma’ruzasida.

Ana shunday o‘zgarib borayotgan sharoitda ijtimoiy himoyaga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solish usul hamda vositalari ham zamon o‘zgarishlariga mos ravishda rivojlantirilishi hamda takomillashtirilishi davr talabidir.

“Ijtimoiy himoya yili” davlat Dasturida eng muhim vazifa sifatida belgilangan nodavlat ijtimoiy himoyasini yanada kengaytirilishi lozimligi nazarda

---

<sup>1</sup> Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. 2007 йил. №4-6, 39-модда.

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh .M. Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi „Obod qishloq“ dasturi oliy majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi 17.2.2017

tutilgan bo‘lib, ishlab chiqarishni barqaror rivojlanib borayotgani ushbu vazifani bajarilishi uchun ob‘ektiv shart-sharoitni yuzaga keltirmoqda.

Ijtimoiy himoyada yuz berayotgan muhim o‘zgarishlar sohasi bo‘lib bugungi kunda bu sohada aholining muxtoj tabaqalarini moddiy-ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda davlat bilan birga nodavlat, homiylik tashkilotlari, korxonalar va tashkilotlar, savob talab fuqarolarning keng ishtirok eta boshlaganlari sanaladi. Ijtimoiy himoyada nodavlat mablag‘larning ulushi tobora salmoqli tus olmoqda va jamiyat moddiy bazasining yaxshilanishi bilan bu ulushning muntazam ortib borish tendensiyasi tobora yaqqolroq namoyon bo‘lmoqda<sup>1</sup>.

Ushbu o‘zgarishlarning barchasi nodavlat ijtimoiy himoyasi huquqiy bazasini rivojlantirish, zarur qonunlar va boshqa qonun hujjatlari qabul qilinishi, mavjud qonunchilik normalariga zamon talablari taqozo qilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishini talab etadi. Bu sohada muayyan ishlar qilinayotganligi, ijtimoiy himoyani yanada takomillashtirishga qaratilgan qonunlar va boshqa qonunchilik hujjatlari qabul qilinayotganligini e‘tirof qilgan holda bu sohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar hali juda mo‘l ekanini ham ta’kidlamoq zarur.

Mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj toifalarga kam ta’minlanganlar, ko‘p bolali onalalar, nogironlar, yolg‘iz qariyalar va boshqalar kiradi. Har qanday tuzum va jamiyatda aholining bunday toifalari u yoki bu darajada uchraydi. Adolatli jamiyat hamisha ularni himoya qilishni o‘z zimmasiga oladi. Shuning uchun ham O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishganidan keyin kuchli ijtimoiy siyosat yuritdi. Ijtimoiy sohaga muhim e‘tibor hozirgi paytda ham davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma olti yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilingan bo‘lib, bu bayram “Fidoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy,

---

<sup>1</sup> Qarang: masalan, kайд этиб ўтилганидек, ” Ижтимоий ҳимоя йили “ Давлат дастури ижросини таъминлаш учун 2007 йилда ижтимоий ҳимоя мақсадлари учун сарфланган маблағларнинг 270 млрд. дан ортигини нодавлат грант маблағлари ва хомийлик ташкилотларининг маблағлари ташкил этди.

ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hamda targ'ibot-tashviqot ishlari dasturi asosida amalga oshirildi.

Chunki Qarorda ushbu Dasturni 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi<sup>1</sup> hamda "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"<sup>2</sup> Davlat dasturining ma'no-mazmunidan kelib chiqqan holda tayyorlangan edi. Bu beshta ustuvor yo'nalishdan to'rtinchisida aynan ijtimoiy sohani rivojlantirish ko'zda tutilgan. U quyidagicha bayon etilgan: "Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish".

Ma'lumki, nodavlat ijtimoiy himoyasi ixtiyoriylikka va o'zaro kelishuvga (shartnomaviylikka) asoslanadi. Shu sababli uning fuqarolik huquqiy asoslarini atroflicha o'rganish, tahlil etish, fuqarolik qonunchiligi imkoniyatlaridan yanada to'laroq foydalanish yo'llarini axtarib topish, shartnomalarning yangi-yangi shakllaridagi ijtimoiy ximoya maqsadlarida yanada kengroq foydalanish imkoniyatlarini axtarib topish nodavlat ijtimoiy himoyasini taraqqiy toptirishning muhim shartlaridan sanaladi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Prezidenti o'z so'zida: "Bugun prinsipial jihatdan g'oyat muhim bo'lgan bir fikrni yana ta'kidlab aytishni zarur deb bilaman: O'zbekiston va uning bag'rikeng xalqi tinchliksevar siyosat yuritish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash tamoyillarini amalga oshirish pozitsiyasida doimo mustahkam turib kelmoqda. Lekin, zarur bo'lsa, biz mamlakatimiz suvereniteta va mustakilligiga, xalqimizning tinch va osuda hayotiga

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги. -Тошкент. 2017 йил. 7 феврал ПФ – 4947-сон.

<sup>2</sup> Қаранг. 2017 йил шу ном билан аталган.

tahdid soladigan har qanday urinishlarga qarshi keskin zarba berishga qodirmiz. Shuning uchun men, xalqimizga murojaat qilib, shuni aytmochimanki, bu masalada hech kimda hech qanday ikkilanish va shubha bo‘lmasligi lozim. Bunga bizning kuchimiz ham, qudratimiz ham etarli”<sup>1</sup>.

Bundan tashqari, uzoq yillardan buyon amalga oshirib kelinayotgan kuchli ijtimoiy himoyalash siyosatimiz davomida nodalat ijtimoiy himoyasi keng qo‘llanilib kelmoqda va zamon taqozasiga ko‘ra uning miqyosi ortib, shakllari esa xilma-xillashib bormoqda. Bu sohada sodir bo‘layotgan jarayonlarni taxlil etish, ayrim fuqarolar hamda yuridik shaxslar tomonidan amalga oshirayotgan bunday xarakatlarga fuqarolik huquqiy nuqtai nazardan ilmiy nazariy baho berish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni amaldagi qonunchilik tizimlarini takomillashtirilishi orqali hal etish yo‘llarini axtarib topish nafaqat bugungi kundagi vazifalarni hal etish uchun, balki nodavlat ijtimoiy himoyasini kelgusida yanada kengaytirilishi uchun xam kerakli ilmiy-nazariy baza barpo etilishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagilarning barchasi mavzuning zamonamiz talablari, hayotimiz ehtiyojlaridan kelib chiqayotgan dolzarb ekanligini so‘zsiz isbotlab turibdi.

**Bitiruv malaka ishining o‘rganilganlik darajasi.** Aholini ijtimoiy himoyalash siyosati mustaqil taraqqiyotimizning dastlabki kunlaridan davlatimiz faoliyatining bosh prinsiplaridan bo‘lib kelayotganligi tadqiqotchilar tomonidan ushbu masalaga doir muammolarga ham u yoki bu darajada e‘tibor qaratib kelinayotganligini ko‘rsatadi.

Aholini ijtimoiy himoyalashning iqtisodiy, siyosiy, falsafiy va boshqa jihatlari turli soha olimlari tomonidan o‘zlarining ham predmetlari doirasida tadqiq qilingan<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатининг биргаликда барпо этамиз, Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг ҳўшма мажлисидаги нутқи. Ш.М.Мирзиёев –Тошкент. ”Ўзбекистон” НМИУ. 2016. -Б.9.

<sup>2</sup> Қаранг: Хамидулин М.Б. Корпоративная социальная ответственность как важный компонент социальной защиты населения. Аholини ижтимоий химоялаш тизими: холати, таркиби ва ислох этиш йўллари. Илмий ишлар тўплами. Т., Молия, 2007., -Б.11-14., Шодмонов Ш.Ш., Гафуров У.В. Ишчи кучининг самарали бандлигини таъминлаш-аholини ижтимоий химоя қилишнинг мухим йўналиши. Юкоридаги манба.-Б. 69-73

Bu soha va ijtimoiy himoyaga oid muammolar huquqshunoslik fani ilmiy namoyondalari tomonidan ham o'rganib kelinmoqda.

Bunda milliy mualliflarimizdan Akademik X.R. Raxmonqulov, I.B. Zokirov, M.A. Usmonova, D.Q. Axmedov, Y. Tursunov, SH.M.G'oziev, G.D. Sattarova, O.Muhitdinova, R. Zabixodjaev kabilarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

Ijtimoiy himoyaning ko'pgina jihatlari hamda muammolari MDX mamlakatlari, uzoq xorij olimlari tomonidan ham turli nuqtai nazardan o'rganilgan va muayyan ilmiy natijalar qo'lga kiritilgan. Ular ijtimoiy himoyaning ijtimoiy-iqtisodiy tomonlariga, ayrim toifadagi fuqarolar hamda xizmatchilar himoyasi masalalariga o'z e'tiborlarini qaratganlar.

Ayni paytda aholi muxtoj qatlamlari nodavlat ijtimoiy himoyasida fuqarolik huquqiy shartnomalarning roli va ahamiyati, bunda ayrim shartnoma turlaridan foydalangan holda ijtimoiy himoyalash masalalari, ijtimoiy himoyani homiylik yo'li bilan kengaytirish va rivojlantirishda ulardan foydalanish istiqbollari hamda boshqa ko'plab dolzarb masalalar hozirga qadar etarli o'rganilgan emas.

**Bitiruv malaaka ishining maqsadi va vazifalari.** Malaka ishining asosiy maqsadi – nodavlat ijtimoiy himoyasining ilmiy-nazariy muammolarni o'rganish, bu sohadagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy asoslarni yanada kengaytirish hamda takomillashtirish, shartnomalar ahamiyatini oshirish yuzasidan xulosa, taklif va tavsiyalar berishdan iborat.

**Bitiruv malaka ishiing vazifalari uning maqsadidan kelib chiqadi va quyidagilardan iborat:**

- Aholining nodavlat ijtimoiy himoyasida fuqarolik huquqiy vosita va instrumentlardan yanada kengroq foydalanish yo'llarini axtarib o'rganish;
- Ijtimoiy himoyada fuqarolik huquqiy shartnomalar mavqeini aniqlash, asosiy tushunchalar ega bo'lish;
- Shartnomalarning ayrim turlaridan ijtimoiy himoya maqsadlarida foydalanish xususiyatlarini belgilash;

- Ijtimoiy himoyaning shartnomaviy huquqiy bazasini kengaytirish yo‘llarini izlash;
- Homiylik va hayriya faoliyatining fuqarolik huquqiy asoslari nazariy tavsifini berish;
- Ijtimoiy himoya maqsadida tuziladigan shartnomalar bajarilishi, bajarilmaganligi uchun javobgarlik masalalari va ularning echimlari o‘rganish;
- Ijtimoiy himoyada qo‘llaniladigan shartnomalar va ularning qonunchilik asoslarini o‘rganib chiqish.

**Malakaviy ishining ob’ekti** bo‘lib tez rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari sharoitida aholi ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish maqsadida fuqarolik huquqiy shartnomalardan foydalanish muammolari sanaladi.

**Malaka ishining nazariy va metodologik ahamiyati** shundan iboratki, unda ijtimoiy himoya davlat va jamiyat tadbirlarida fuqarolik huquqiy vositalarning, eng avvalo shartnomalarning ahamiyati o‘rganildi hamda olingan ilmiy tavsiya va xulosalar fanga yangi nazariy qarashlar, tushunchalar kirib kelishiga yordam beradi, ijtimoiy himoyaning nazariy asoslari boyitilishiga xizmat qiladi.

**Bitiruv malaka ishining amaliy ahamiyati** esa bu sohadagi qonunchilikni o‘rganish, nodavlat ijtimoiy himoyasida fuqarolik huquqiy shartnomalar orqali qatnashuvchi sub’ektlar statusini belgilanishida, nodavlat ijtimoiy himoyasi amaliyotida qonuniylik rejimi yanada kuchaytirilishida ko‘zga tashlanadi.

Malaka ishi natijasida qo‘lga kiritilgan ilmiy nazariy natijalardan ijtimoiy ximoya va ijtimoiy ta’minot huquqi fanini rivojlantirilishida, talaba yoshlarga ushbu fandan ta’lim berish jarayonini yanada rivojlantirish xamda takomillashtirishda keng foydalanish mumkin bo‘ladi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi – ishning maqsad va vazifalariga asoslangan holda kirish, 4 paragrafdan iborat bo‘lgan 2 bob, xulosa qismidan hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

## **I-BOB. IJTIMOIIY HIMOYA TUSHUNCHASI VA UNING FUQAROLIK HUQUQIIY ASOSLARI**

### **I.1. O‘zbekistonda ijtimoiy himoya siyosati va uning asosiy taraqqiyot tendensiyalari**

O‘zbekiston o‘z davlat mustaqilligi va milliy suverenitetini amalda qo‘lga kiritgandan so‘ng fuqarolik jamiyati hamda huquqiy davlat barpo etish maqsadini hamda ushbu oliyjanob maqsadga erishishni ta‘min etuvchi taraqqiyotning “O‘zbek modelini” jahonga e‘lon qilar ekan, uning natijasi buyuk davlat qurish, fuqarolar uchun yuksak standartlar talablariga mos keluvchi farovon va qulay turmush sharoitlarini yaratishdan iboratligi belgilab olindi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov o‘z vaqtida alohida ta‘kidlab o‘tganidek: “Bozor iqtisodiyotini barpo etish – shunchaki bir maqsad emas. Barcha iqtisodiy, demokratik siyosiy islohotlarning pirovard maqsadlarining o‘zi, eng avvalo inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratishdir”<sup>1</sup>.

Ijtimoiy himoya mustaqil taraqqiyotimizning dastlabki bosqichlarida bozor sharoitlari bilan tanish bo‘lmagan va bozor ko‘nikmalariga ega bo‘lmagan, boqimandalik ruxi bilan tarbiyalangan barcha aholini muxofaza qilishga qaratilgan bo‘lsa, keyinchalik ustuvorliklar sekin-asta almasha boshladi va ijtimoiy himoya barcha aholiga emas, balki ob‘ektiv xususiyatlariga ko‘ra o‘zini o‘zi to‘liq ta‘minlay olmaydigan tabaqalariga aniq yo‘naltirilgan holda amalga oshirila boshlandi. Zeroki, mehnatga yaroqli aholini davlat hisobidan ta‘minlash bozor prinsiplariga mos kelmaydi va ularning mehnat saloxiyatini to‘la yuzaga chiqishi uchun zarur shart –sharoitlarni yaratish, mehnat qilib daromad topish imkoniyatlarini kengaytirish, tadbirkorlikni keng avj oldirish orqali hayot kechirish darajasini yuksaltirish ustuvor ahamiyatga ega bo‘la boradi.

Chindan ham, istiqloq yillarida ijtimoiy muhofaza muayyan tizimga aylandi. Muhtoj qatlam va guruhlariga moddiy yordam ko‘rsatishning o‘ziga xos, ya‘ni milliy mexanizmi ishlab chiqildi. Buni adolatli amalga oshirishda qishloq, ovul va

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т.: Ўзбекистон, 1994, 105 бет.

mahalla fuqarolar yig'inlarining mas'uliyati oshirildi. Inflyasiyani inobatga olgan holda har yili bir necha marotabadan davlat byudjetidan ajratiladigan maoshlar, pensiya va stipendiyalar oshirib borilyapti.

Muhtoj qatlam va guruhlariga nodavlat va jamoat tashkilotlari tarafidan moddiy yordam ko'rsatishning ham turli-turli shakllari paydo bo'ldi va bu jarayon tobora takomillashib boryapti.

2017 yilning aynan "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb nomlanishi amalda davlat siyosatining izchilligidan dalolat beradi. Bugunga kelib mamlakatimiz o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga kirdi. Ijtimoiy siyosat borasida istiqlol yillaridagi katta tajribalarga suyanan, mavjud an'analarni izchil davom ettirgan holda yangi-yangi qadamlar tashlanyapti.

O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 22 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to'g'risida"gi Farmoni bilan 94 nafar shaxs davlatimiz fuqarosi bo'ldi. Undan keyin qabul qilingan bir necha Farmonlar asosida yana qanchadan-qancha kishilar fuqarolikka o'tdi. Bu ham mamlakat tarixida muhim ijtimoiy voqelik sifatida baholanadi albatta.

Harakatlar strategiyasi asosida ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan ishlar ko'lamini esa har kanday kishini mamnun etadi. "2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoyishida muayyan ma'noda hozirgacha amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilindi.

Jumladan, ijtimoiy sohadagi eng muhim ishlar ham o'z aksini topgan. Unda qayd etilishicha, "faqatgina joriy yilning birinchi yarmida 2,7 ming kilometr avtomobil yo'llari qurildi va ta'mirlandi, 84 ming 300 ta ish o'rni yaratildi. 2017 - 2020 yillarda shaharlarda energiya jihatdan samarador arzon ko'p kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturi amalga oshirilmokda, uning doirasida 50 ming 286 ta xonadondan iborat 1 ming 136 ta ko'p qavatli uylarni, bundan

tashqari, namunaviy loyiha asosida qishloq joylarida 75 ming turar joylarni qurish mo'ljallangan".

Ijtimoiy sohaga e'tiborning ko'lamini tasavvur qilish uchun, loaqal, shu yil, ya'ni 2017 yilning o'zida bu borada qabul qilingan qonunosti hujjatlarning muhim-muhimlarini sanash kerak. Ko'rib o'tilganidek, Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun aynan nimalarni amalga oshirish aniq-tiniq qilib belgilab berilgan. Agar Harakatlar strategiyasi qabul qilingandan buyon o'tgan davrga nazar tashlasak, bu borada ana shu qisqa fursat ichida mamlakatimizda qanchalar katta ishlar hayotga tatbiq etilganining guvohi bo'lamiz. Buning uchun ana shu to'rtinchi ustuvor yo'nalish hisoblanmish ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha belgilangan etti vazifaning ijrosi yuzasidan qilingan ishlarga yana bir karra nazar tashlashga to'g'ri keladi.

Aholi bandligi va real daromadlarni izchil oshirib borishni olib ko'raylik. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtiri va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>1</sup>gi Farmoni qabul qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy kompleksni hududiy organlari rahbarlarini shaxsiy mas'uliyatini oshirish chora tadbirlari to'g'risida" (06.05)<sup>2</sup>, "Kasanachilikni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>3</sup>, "Madaniyat san'at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha sharoitlar yaratishga doir

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Бандлик соҳасида давлат сиёсатини янада такомиллаштири ва меҳнат органлари фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони қабул қилинди. 2017 йил 24 май.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республика Президентининг "Аҳоли бандлигини таъминлаш бўйича олиб борилаётган ишлар натижадорлиги ва самарадорлигини оширишда маҳаллий ижро ҳокимияти ва иқтисодий комплексни ҳудудий органлари раҳбарларини шахсий масъулиятини ошириш чора тадбирлари тўғрисида" Қарори. 2017 йил 6 май.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Касаначиликни янада ривожлантириш учун қулай шaroitлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида" Қарори. 2017 йил 24 май.

chora-tadbirlar to‘g‘risida”<sup>1</sup> , “2018 - 2019 yillar, turizm sohasiki rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”<sup>2</sup> va boshqa Qarorlari chiqdi.

Ayniqsa, aholi ijtimoiy himoyasi va sog‘lig‘ini saqlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha ham ko‘p ish qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Shoshilinch tibbiy yordamni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>3</sup>, “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>4</sup>, “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasini tashkil etish to‘g‘risida”<sup>5</sup> , “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”<sup>6</sup>, “Davlat veterinariya xizmati boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>7</sup> va boshqa Farmonlari qabul qilindi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>8</sup>, “Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risida”<sup>9</sup>, “2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasida onkologiya xizmatini yanada rivojlantirish va aholiga onkologik yordam ko‘rsatishni takomillashtirish chora-

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маданият санъат ташкилотлари, ижодий уюшмалар ва оммавий ахборот воситалари фаолиятини янада ривожлантириш, соҳа ходимлари меҳнатини рағбатлантириш бўйича қўшимча шароитлар яратишга доир чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори. 2017 йил 14 август.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2018 - 2019 йиллар, туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори. 2017 йил 16 август.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Шошилинч тиббий ёрдамни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. 2017 йил 16 март.

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш тизимини бошқаришни янада такомиллаштири чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармони 2017 йил 18 апрель.

<sup>5</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида Ичимлик суvidан фойдаланишни нazorат қилиш давлат инспекциясини ташкил этиш тўғрисида”ги Фармони 2017 йил 18 апрель.

<sup>6</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш тўғрисида”ги Фармони. 2017 йил 21 апрель.

<sup>7</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат ветеринария хизмати бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. 2017 йил 1-июнь.

<sup>8</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Соғлиқни сақлаш соҳасида хусусий секторни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”<sup>8</sup>ги фармойиши. 2017 йил 1-апрель.

<sup>9</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиларини рағбатлантириш тўғрисида”ги Қарори. 2017 йил 4 апрель.

tadbirri to‘g‘risida”<sup>1</sup>, “2017 - 2021 yillarda ichimlik suvi ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to‘g‘risida”<sup>2</sup>, “2018 - 2022 yillarda issiqlik ta‘minoti tizimini rivojlantir dasturi to‘g‘risida”<sup>3</sup>, “2017 - 2021 yillarda ko‘p xonadonli uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>4</sup>, “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga 2017 - 2021 yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>5</sup>, boshqa Qarorlari hamda “Nogironlarni davlat tomonidan ko‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>6</sup> Farmoyishi chiqdi.

Arzon uy-joylar barpo etish mamlakatimizda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan ishlarning insonparvarligini ko‘rsatib turibdi. Uy-joylar arzon narxlarda qurilsa, uni sotib oluvchilar soni ko‘payadi. Eng muhimi, bu birinchi galda aholining uy-joyga o‘ta muhtoj qatlamining manfaatlarini o‘ylagan holda yo‘lga qo‘yildi. Hozirgi paytda mamlakatimiz barcha mintaqalarida ikki sotixli namunali qishloq uylarini, shuningdek, ikki-uch xonali ko‘p qavatli uylarni qurish jadal davom ettirilyapti. Bu borada, ayniqsa, imtiyozli kreditlar joriy etilganidan aholi bag‘oyat minnatdor.

Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish borasida tub burilish yuz berdi.

Ijtimoiy himoyaning passiv ob‘ektidan, davlatning moddiy yordamidan bevosita va bilvosita foydalanuvchidan o‘z taqdirining faol soxibiga, o‘zining ijtimoiy faolligi uchun mas’ul bo‘lgan shaxsga aylanishi lozim. Aholining mehnat

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикасида онкология хизматини янада ривожлантириш ва аҳолига онкологик ёрдам кўрсатишни такомиллаштириш чора-тадбирри тўғрисида”ги Қарори.2017 йил 4 апрель.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017 - 2021 йилларда ичимлик суви таъминоти ва канализация тизимларини комплекс ривожлантириш ҳамда модернизация қилиш дастури тўғрисида”ги Қарори.2017 йил 20 апрель.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2018 - 2022 йилларда иссиқлик таъминоти тизимини ривожлантир дастури тўғрисида”ги Қарори. 2017 йил 20 апрель.

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017 - 2021 йилларда кўп хонадонли уй-жой фондиди сақлаш ва ундан фойдаланиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Қарори.2017 йил 24 апрель.

<sup>5</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентини “Ўзбекистон Республикаси аҳолисига 2017 - 2021 йилларда иxtisoslashtirilgan tibbiy ёрдам кўрсатишни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. 2017 йил 20 июнь

<sup>6</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ногиронларни давлат томонидан кўллаб-қувватлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармойиши.2017 йил 1 август.

faoliyatini kuchaytirish hisobiga uning yakka tartibda o'zini o'zi himoya qilish vositalari to'la ishga solinishi kerak".<sup>1</sup>

Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sosial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda<sup>2</sup>.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar hamda qonunchilik bazasini yaratilganligi, Ombudsman, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik markazi, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti kabi inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar va boshqa bir qator shu turdagi institutlar, tashkilotlar tashkil etilishiga imkon berdi.

Bozor munosabatlari davrida yalpisiga ijtimoiy himoyalashning salbiy jihatlari xaqida fikr yuritib A.A. Razumov ko'rsatgan ediki: "Asosiy e'tibor ijtimoiy yordam va qo'llab-quvvatlashga (u yoki bu shaklda, turli qatlamlarni) qaratilgan bo'lsa hamda yordam oluvchilar soni ko'payib boradigan bo'lsa, u holda, davlat muqarrar ravishda "Ijtimoiy ta'minot bo'limi"ga aylanib qoladi. Bu hol mehnat qilishga intilishning so'nishiga, kambag'alikning ko'payib borishiga, boqimandalik kayfiyatlari avj olishiga sabab bo'lishi mumkin".<sup>3</sup>

Ijtimoiy himoya aniq maqsadli va manzillilik tamoyili asosida amalga oshirilgan ekan, bunda birinchi navbatda o'z ob'ektiv ko'rsatkichlari bo'yicha jamiyatning anashunday yordami berilishi lozim bo'lgan shaxslar nazarda tutilmog'i kerak. Bunday ijtimoiy yordamga muxtoj va ijtimoiy "xatar" guruhiga mansub bo'lgan fuqarolar toifalari BMTning "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"da, "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi" Xalqaro

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон: Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Асарлар тўплами. 1-жилд. Т., Ўзбекистон, 1996 йил, 329-бет.

<sup>2</sup> И.А.Каримов. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь – Т.: "Ўзбекистон", 2010. – Б. 42.

<sup>3</sup> Разумов А.А. «Государство и социальная защита: проблемы бедности и безработицы». М., 1997 г., 4-стр.

Paktida, Xalqaro Mehnat Tashkiloti Konvensiyalarida, mintaqaviy xalqaro tashkilotlar hujjatlarida nazarda tutilgandir.

Jumladan, BMTning 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan (O‘zbekiston Respublikasi tomonidan 1991 yil 30 sentyabrda ratifikatsiyalangan) “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”ning 25-moddasi, 1-bandi ijtimoiy himoyaga ob’ektiv ravishda muxtoj shaxslar jumlasiga quyidagi fuqarolar toifalarini kiritadi:

- a) ishsizlar;
- б) kasallar;
- в) nogironlar;
- г) bevalar;
- д) qarilar;
- e) o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan sabablar bilan ob’ektiv ravishda tirikchilik

uchun mablag‘ bo‘lmay qolganlar.

Ushbu xalqaro huquqiy hujjat “Onalik va bolalik alohida g‘amxo‘rlik va yordam huquqini beradi. Barcha bolalar, nikohda yoki nikohsiz tug‘ilishidan qat’iy nazar bir hil ijtimoiy himoyadan foydalanishi kerak”<sup>1</sup>.

Demak bolalar va onalar imtiyozli tarzda ijtimoiy himoya etiladigan alohida tabaqa sifatida e’tirof qilinadi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti yuqoridagi tasnifiga asoslangan holda ijtimoiy himoyaga muxtoj har bir tabaqaga oid maxsus Konvensiyalar hamda Tavsiyalar qabul qilgan<sup>2</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik tizimida ham ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar deganda yuqoridagi xalqaro huquqiy hujjatlarda keltirilgan belgi va xususiyatlar bo‘yicha guruhlariga ko‘ra aniqlanadigan aholi qatlamlari nazarda tutiladi.

O‘zbekiston Respublikasida hozircha ijtimoiy himoyaga oid munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus qonunning qabul qilinmaganligi va ijtimoiy yordamga

---

<sup>1</sup> Инсон ҳуқуқлари. Ўқув қўлланма. Т., Ўзбекистон, 1997 йил, 189-бет.

<sup>2</sup> ХМТ нинг “Савдо ва саноат корхоналарида ходимларни кеасликдан суғурталаш тўғрисида”ги 24-сонли, “Аёлларнинг хомиладорлик бола туғишдан кейинги меҳнати тўғрисида”ги 3-сонли, “Ногиронлик, қарилик, боқувчисиз қолганлик нафақалари тўғрисида”ги 128-сонли ва бошқа Конвенциялари. Конвенции и Рекомендации МОТ. Женева. Международный Бюро Труда. Ч.1-2, 1991.

muxtojlik mezonlari turli-tuman qonunosti va idoraviy hujjatlarda nazarda tutilganligi oqibatida ijtimoiy himoyaga muxtoj shaxslarning yagona prinsipi asosidagi klassifikatsiyasi mavjud emas.

Ijtimoiy himoyaning nazariy muammolari bilan shug'ullanayotgan ayrim olimlar tomonidan bunday shaxslarni guruxlashga, har bir guruhga xos xususiyatlarni tavsiflashga harakat qilib kelingandir.

Jumladan, M.A. Usmonovanning ta'kidlashicha: Ijtimoiy himoyaga muxtojlik mezonini belgilovchi ijtimoiy xatar tushunchasi hozirgi paytga qadar turlicha tushunib kelinmoqda. Ammo, shunday xatarlar jumlasiga kiruvchi holatlar ro'yxati masalasida nisbatan yakdillik mavjud bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kasallik;
- onalik (bolalik);
- nogironlik;
- keksalik;
- ishsizlik;
- boquvchisiz qolganlik;
- mehnatda mayiblanish;
- homiladorlik va bola tug'ish.

Ushbu muallifning ijtimoiy yordamga muxtoj shaxslar ruyxatini belgilovchi yuqoridagi fikrlari bir muncha to'liq bo'lib, xalqaro huquqiy hujjatlarga asosan mos keladi.<sup>1</sup> Ayni paytda, xalqaro hujjatlarda onalar va bolalar ijtimoiy himoyalanadigan shaxslarning alohida toifasini tashkil etishga e'tibor qaratilmog'i lozim.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risida, Ayollar huquqlari to'g'risida maxsus xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi vav ularga ko'ra ushbu toifa axoli ijtimoiy huquqlari maxsus muxofaza etilish choralari belgilanganligi anashundan dalolat beradi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Усмонова М.А. Ўзбекистонда ижтимоий химоя: Фуқаролик ҳуқуқий жиҳатлари. Монография. Т., ТДЮИ, 2005 йил, 15-бет.

<sup>2</sup> Права человека. Единство общечеловеческого и национального. Сб. международных договоров и законов Республики Узбекистан. Т., ИПК «Шарк», С. 313-337.

D.Q. Axmedovning fikricha ijtimoiy himoya qilinishi lozim boʻlgan shaxslar doirasi bir muncha kengroq boʻlib, oʻziga bogʻliq boʻlmagan sabablarga koʻra (yaqinlarning vafot etishi, jarohat olishi, korxonasi bankrot boʻlishi, mol-mulkini yongʻin yoki boshqa sabablarga koʻra yoʻqotishi va boshqalar) daromaddan mahrum boʻlgan, qiyin sharoitga tushib qolgan insonlar ham ular jumlasiga kiritilgan.<sup>1</sup>

Bizning fikrimizcha ijtimoiy himoyalaniishi lozim boʻlgan shaxslar doirasi har ikkala muallif qayd etgan darajadan ham kengroq boʻlishi lozim va oʻz ichiga siyosiy emigrantlar, majburan koʻchib kelganlar, boshpana huquqidan foydalangan shaxslar hamda ularning oila aʼzolarini ham qamrab olmogʻi lozim.

Umuman olganda, Oʻzbekiston Respublikasining “Ijtimoiy himoya toʻgʻrisida”gi Qonuni tayyorlanishi va qabul qilinishi, unda ijtimoiy himoyadan foydalanishga xaqli boʻlgan shaxslarni aniqlash mezonlari, bunday shaxslarning namunaviy roʻyxati belgilab berilishi lozim.

Ijtimoiy himoyaga ajratilgan mablagʻlardan maqsadli foydalanish, ularni tarqalib ketish hollari, mablagʻlarni tasarruf qilishda suisteʼmollikka yoʻl qoʻyilishi xodisalari kuzatilmoqda va bizningcha bunday salbiy xodisalarning sabablaridan biri, fikrimizcha, aynan qonunning mavjud emasligi, qonunosti hujjatlari normalarini turlicha talqin etish imkoniyatlari mavjudligidadir.

Aholini ijtimoiy himoyalash, odamlarning moddiy ahvolini yaxshilash vazifalarini hal qilishda davlat manbalari bilan bir qatorda mehnat jamoalarining, jamoat tashkilotlari va hayriya tashkilotlarining (“Navroʻz”, “Mahalla”, “Mehr-muruvvat” va boshqa hayriya jamgʻarmalarining) mablagʻlari faol ishga solinmogʻi lozim. Ijtimoiy himoyalash davlatning ham, jamoat tashkilotlarining ham, turli hayriya jamgʻarmalarining ham asosiy vazifasi boʻlmogʻi lozim”.<sup>2</sup>

Ijtimoiy himoya masalasi faqat davlat va hokimiyat tashkilotlari, ijtimoiy taʼminot va hayriya muassasalarining ishi boʻlib qolmasligi lozim. “Ijtimoiy” degan soʻzning jamoatchilikka mansub degan maʼnoni anglatishini inobatga olinsa,

---

<sup>1</sup> Axmedov D.Q. Бозор иқтисодига ўтиш шароитида ижтимоий ҳимоя. // ж. Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. 2004 йил, №2, 23-бет.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т., Ўзбекистон, 1994 йил, 54 бет.

bu o‘ta muhim masala jamiyatimizning, barchamizning muqaddas burchimiz bo‘lib qolishi lozim.

Mamlakatimiz taraqqiyotida demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishdek yuksak maqsadni oldimizga qo‘ygan ekanmiz, jamiyatimiz xalq irodasini to‘la aks etdirishi, inson huquq va erkinliklari qaror topdirilishidan iborat demokratik tamoyillarga qat’iy amal qilgan holda harakat qilishimiz zarur bo‘ladi.

Buning uchun esa hayotimizning kundan-kunga yaxshilanishiga har birimiz o‘zimizning kundalik ishlarimiz, yuksak insoniy g‘oyalarni targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan gap-so‘zlarimiz, bunyodkorlik hatti-harakatlarimiz bilan baholi qudrat hissa qo‘shishimiz kerak.

## **I.2. Nodavlat ijtimoiy himoyasi va uning fuqarolik huquqiy asoslari tavsifi**

Ijtimoiy himoya – “davlat- jamiyat- shaxs” uchburchagi xamkorligining muhim jihatlaridan biri bo‘lib, bir tomondan, har bir fuqaro ob’ektiv sabablarga ko‘ra og‘ir moddiy-ijtimoiy ahvolga tushib qolganida (keksayganida, nogiron bo‘lib qolganida, boquvchisidan judo bo‘lganida va boshqa hollarda) davlatning va jamiyatning ko‘magiga umid qilsa bo‘lishini, ana shunday ijtimoiy himoyadan foydalanish huquqini anglatadi, ikkinchi tomondan – davlat o‘z muxtoj fuqarolarini qo‘llab-quvvatlashga burchli ekanini, o‘z fuqarolarining bu sohadagi huquqlarini kafolatlash va ta‘minlab berishni bildiradi. Uchinchidan esa, ojiz-notavon, beva-bechoralar xaqida qayg‘urish nafaqat davlatning, balki jamiyatning ham muhim vazifasi ekanligini anglatadi.

L.S. Rjanitsinaning fikriga ko‘ra:” Ijtimoiy himoya tushunchasi o‘z ichiga insonning ijtimoiy –iqtisodiy huquqlarini ta‘minlash xamda kafolatlash yuzasidan amalga oshiriladigan davlat faoliyatini oladi va bunda shaxsning yashash joyi, millati, jinsi, yoshi va boshqa xlatlarining axamiyati bo‘lmaydi”<sup>1</sup>

Davlat va jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy himoyaning o‘zi nima, ushbu tushuncha qaysi qoida va normalarni o‘z ichiga oladi, ular qanday

---

<sup>1</sup> Ржаницина Л.Б. Социальная защита: пятилетие реформ. –М.; 1997., с. 65.

ta'riflanishi kerak, degan savollar ustida ko'pgina tadqiqotchilar fikr yuritib kelganlar.

Jumladan, ba'zi mualliflar "Ijtimoiy ta'minot" va "Ijtimoiy himoya" tushunchalarini aynan bir hil deb hisoblasalar,<sup>1</sup> boshqalari esa, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoya mutlaqo boshqa-boshqa narsalar deb talqin qiladilar<sup>2</sup>.

Bizning nazarimizda ushbu ikki tushuncha bugungi real hayotimizda mavjud bo'lgan ikki ijtimoiy xodisani o'zida ifodalaydi. Ammo, yuqoridagi mualliflar talqin qilayotganlaridek ularni bir-biriga qat'iy qarama-qarshi qo'yish ham, aynan bir xillashtirish ham mumkin emas. Chunki, ijtimoiy ta'minot ham o'z maqsad-mohiyatiga ko'ra ob'ektiv sabablarga ko'ra mehnat qilish imkoniyatiga, ishlab pul topishga qodir bo'lmay qolgan yoki bunday imkoniyati cheklangan shaxslarni pensiyalar tayinlash va to'lash orqali moddiy muxofaza qilishga qaratilgan, ya'ni unda ham ijtimoiy himoya funksiyasi kuchli ravishda mavjuddir.

Bu tushunchalarni aynanlashtirish ham unchalik to'g'ri bo'lmasa kerak, deb hisoblaymiz. Chunki, ijtimoiy ta'minot bir qator o'ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadiki, ijtimoiy himoyaning boshqa ko'rinishlarida ular mavjud emas. Masalan, ijtimoiy ta'minotni berilishi eng avvalo shaxsning davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan sug'urtalanganligi, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga uning uchun badallar to'langanligi yoki uning o'zi tomonidan (dexqon xo'jaligi a'zosi yoki yakka tadbirkor bo'lsa) badal to'langanligiga bog'liq bo'ladi. Qolaversa, shaxsda ijtimoiy ta'minot olish huquqi vujudga kelganida bu huquqdan foydalanishga uning moddiy jihatdan yaxshi ta'minlanganligi, maxsus himoyaga muxtoj emasligi uning o'z huquqidan foydalanishga to'sqinlik qilmaydi. Uchinchidan, ijtimoiy ta'minotning miqdori shaxsning (boquvchisiz qolganda – marhum boquvchining) avvalgi mehnat faoliyatiga, uning sifatiga (ish xaqi miqdoriga) bog'liq bo'ladi.

Sof ijtimoiy himoya tarzida ko'rsatiladigan yordamlar esa yuqoridagi xususiyatlarga ega bo'lmasdan faqat muxtoj shaxslarga berilishi mumkin va bunda

---

<sup>1</sup> Каранг: Тультеев И.Т. Ўзбекистон Республикаси Конституциясига шарх. -Т.: Ўзбекистон, 2001 йил, 233-бет.

<sup>2</sup> Турсунов Й., Шоимхонов З. Ижтимоий таъминот ҳуқуқи. Дарслик. –Т.: ТДЮИ, 2003 йил, 13-бет.

odatda muxtoj shaxsning avvalgi mehnat faoliyati, ish xaqi e'tiborga olinmaydi, ijtimoiy himoya sifatidagi yordamning miqdori muayyan mezonlarga ko'ra oldindan qayd etilib, mustahkamlab qo'yiladi.

Shu sababli ijtimoiy ta'minot ham ijtimoiy himoyalash maqsadiga qaratilgan bo'lsada, u bunday himoyaning mutlaqo o'ziga xos turidan iboratdir.

“Ijtimoiy himoya” tushunchasiga yu.f.d. M.A. Usmonovning yondoshuvi o'ziga xos bo'lib, uning ta'kidlashicha: “Ijtimoiy himoya keng va tor ma'noda tushunilishi lozim. Keng ma'noda bu tushuncha aholining barcha qatlamlariga (kasbiy, tarmoq, mintaqaviy va boshqalar) qo'llaniladigan hamda ijtimoiy xatar (risk) yuz berganda moddiy va boshqa yordam ko'rsatishga qaratilgan (masalan, davlat xizmatchilarini, ekologiya halokati yuz bergan mintaqa aholisini ijtimoiy himoyalash va boshqalar) chora-tadbirlar yig'indisidan iborat. Ushbu ma'noda ijtimoiy himoya chegaralari tegishli qonunlarda belgilangan bo'lib, bunda nafaqat shaxsning ijtimoiy-moddiy muxtojligi, balki bosha tarzda yordam vav qo'llab-quvvatlashga muxtojligi xam muxim mezonlardan bo'lib xizmat qilishi mumkin. Masalan, ishga oylashtirishga muxtoj fuqarolarga, korxonalarining xodimlariga, talaba yoshlarga, davlat xizmatchilariga va axolining boshqa toifalariga muayyan ijtimoiy yordam ko'rsatilishi zarurligi ushbu talablarga asoslanadi.

D.Q. Axmedovning fikricha: “Ijtimoiy himoya” tushunchasi iqtisodiy va falsafiy ma'noda talqin etilishi lozim va u ta'kidlaydiki: “Shunday qilib, davlat ijtimoiy huquqlarni amalga oshirish sohasidagi faoliyati orqali shaxslarning xayotiy faoliyati asosini shakllantiradi. Shunga asosan davlat ijtimoiy himoya tizimiga umumiy tarzda quyidagicha ta'rif berish mumkin: Davlat ijtimoiy himoya tizimi deganda, davlatning shaxs va oilaning individual hayoti uchun qulay bo'lgan shart-sharoitlar yaratish bo'yicha, shaxsning ijtimoiy huquqlarini amalga oshirish borasida yuritadigan faoliyatlari majmuasi tushuniladi”<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Ахмедов Д.Қ. Бозор муносабатлари шароитида давлат ижтимоий ҳимоя сиёсатининг ҳуқуқий жиҳатлари. Монография. Т., ТДҶОИ, 2006 й., 120-бет.

Muallifning yuqorida keltirilgan ta'rifga umuman qo'shilgan holda shuni qay etib o'tish lozimki, ijtimoiy huquqlarning barchasi ham ijtimoiy himoyaga aloqador bo'lavermaydi (masalan, fan va madaniyat yutuqlaridan foydalanish, ilmiy ijod qilish va boshqalar). Qolaversa, yuqoridagi ta'rif faqat davlat ijtimoiy himoyasiga xos xususiyatlarni o'zida aks etdiradi.

Bizning bu sohadagi qarashlarimiz xorijiy davlatlardagi davlat ijtimoiy siyosati va ijtimoiy himoyasi masalalari bilan bog'liq bo'lgan muammolar ustida tadqiqotlar olib borayotgan xorijiy mamlakatlar, eng avvalo MDH mamlakatlari olimlari fikrlariga mos keladi.

Xususan, M. Tulisovning qayd etishicha: "Italiya Konstitutsiyasining 36-moddasida baxtsizlikka uchragan har qanday shaxs davlat ko'magiga umid qilishi mumkin va ushbu nuqtai nazardan ijtimoiy himoya eng avvalo nochor fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, tirikchilik uchun eng zarur vositalar bilan ta'minlash lozimligini nazarda tutadi".

Yuqoridagi ta'rif hamda "Ijtimoiy himoya" tushunchasiga nisbatan bildirilgan mulohazalardan kelib chiqqan holda bu tushunchaga o'zimizning quyidagi doktrinal ta'rifimizni beramiz: "Ijtimoiy himoya" deganda davlat ijtimoiy siyosati tarkibiy yo'nalishi bo'lgan hamda fuqarolarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va boshqa qonun hujjatlarida kafolatlab qo'yilgan ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini ro'yobga chiqarilishiga, ob'ektiv zarurat yuzaga kelganda davlat va jamoat mablag'lari hisobidan moddiy, ijtimoiy-tashkiliy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan moliyaviy-iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv, himoyaviy-huquqiy chora-tadbirlar majmui, davlatning va jamiyatning amalga oshiradigan faoliyati tushuniladi.

Ijtimoiy himoya uni amalga oshiruvchi sub'ektlar, amalga oshirilishi usullari xamda qaysi mulkchilik shakliga tayanilgani xolda amalga oshirilishiga ko'ra:

- 1) Davlat ijtimoiy himoyasi;**
- 2) Nodavlat (homiylilik, xayriya) ijtimoiy himoyasidan iboratdir.**

**Davlat ijtimoiy himoyasi** odatda davlat byudjetidan va maxalliy byudjet mablagʻlari hisobidan davlat ijtimoiy himoyalash organlari tizimiga mansub boʻlgan hokimiyat hamda boshqaruv idoralari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat ijtimoiy himoyasi huquqiy asoslarini maʼmuriy huquqiy, moliyaviy huquqiy, davlat huquqiy hujjatlar, yaʼni ommaviy (davlatga oid) huquqiy normalar tashkil qiladi. Davlat ijtimoiy taʼminot va ijtimoiy himoya organlari oʻzlariga berilgan vakolatlar doirasida davlat amrini ijro qiladilar. Ijtimoiy himoyadan foydalanuvchi shaxslar ham ommaviy huquqiy normalar taʼsirida boʻlib, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan xajmdagi qatʼiy belgilangan huquqlarga ega boʻladilar, majburiyatlarni bajarishlari lozim boʻladi.

Davlat ijtimoiy ximoyasi davlat–shaxs munosabatlaridagi davlatning obʼektiv sabablarga koʻra yordam olishga muxtoj fuqarolari oldidagi majburiyatidan iborat boʻlib, bu majburiyat Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasi talablaroiga asoslanadi. SHu sababli davlat ijtimoiy himoyasi xayriya yoki begʻaraz yordam xususiyatiga ega boʻlmaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 7.02.2017 yildagi PF-4947-son Farmoni bilan 2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlangan<sup>1</sup>. U 5 bosqichda, yurtimizda yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib, har bir yil boʻyicha Davlat dasturlari qabul qilinishini nazarda tutgan holda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, hujjatda davlatimiz rahbarining 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasidabelgilangan vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi. Shu tariqa, joriy yil uchun qabul qilingan Davlat dasturi 5 ta ijtimoiy-siyosiy soha boʻyicha chora-tadbirlarni oʻz ichiga oladi.

**Ijtimoiy sohani rivojlantirish** boʻyicha kompleks tadbirlar, birinchi navbatda, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va sogʻligʻini saqlashni kuchaytirish, aholini arzon va sifatli dori vositalari bilan taʼminlash, fuqarolarning bandligi va

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги.-Тошкент.2017 й.7 феврал ПФ – 4947-сон.

real daromadlarini oshirish, arzon ijtimoiy uy-joylar qurilishini kengaytirish, nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratildi.

Shaharlar va qishloqlarda umumiy turar joy maydoni 3,5 million kvadrat metrdan ortiq bo'lgan namunaviy va ko'p qavatli uylar qurildi. Turar joy qurilishi hajmlari 2010 yilga nisbatan 3,5 baravarga oshdi.

Davlat ijtimoiy himoyasi, bunday himyani amalga oshirishning qat'iy shakl xamda usullari, ijtimoiy himoyani amalga oshiruvchi davlat organlari tizimi barqaror ravishda qonunda nazarda tutilganligi, ular muntazam ish olib borishlari shundan dalolat beradi.

Davlat bosh islohotchi sifatida hamda o'z fuqarolari oldida majburiyatga ega bo'lgan sub'ekt sifatida aholini ijtimoiy himoyalash funksiyasini hech qachon o'zidan soqit qila olmaydi. Biroq, nodavlat ijtimoiy himoyasi tobora kuchayib borishi tendensiyasi xam ob'ektiv xususiyatga ega bo'lib, bu jarayon ko'p jihatdan jamiyatimiz moddiy-mulkiya asoslari rivojlanib borishi, odamlarimiz turmush ko'rsatkichlarining yuksalishi va shu asosda jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy muxit yaxshilanaborishi bilan bevosita bog'liq bo'lsa kerak, deb hisoblaymiz. Zeroki, taraqqiy topgan mamlakatlarda boy fuqarolar o'zlarining millionlab dollar miqdoridagi boyliklarini turli xayriya maqsadlariga yo'llayotganliklari bizga ma'lum. Uzoq o'tmish tariximizda bizda ham ana shunday hollar kam bo'lmagan.

**Nodavlat ijtimoiy himoyasi** ham aholi muxtoj tabaqalarini qo'llab-quvvatlash usuli sifatida tobora keng quloch otib bormoqda va bu tendensiya kuchli davlatdan kuchli jamiyatga tomon rivojlanish, fuqarolik jamiyati barpo qilish maqsadlariga to'la mos keladi.

Nodavlat ijtimoiy himoyasi jamiyat a'zolarining daromadlaridan muayyan qismini ixtiyoriylik, beg'arazlik va insonparvarlik prinsiplariga amal qilgan holda yordamga muxtoj, ijtimoiy jihatdan zaif va o'zini o'zi ob'ektiv sabablarga ko'ra etarli darajada ta'minlay olmaydigan shaxslarga ajratilishidan iborat.

Nodavlat ijtimoiy himoyasi ixtiyoriylik va shartnomaviylikka asoslangani uchun uning asosida xususiy huquqiy normativ qoidalar yotadi. Ya'ni, nodavlat (xayriya, homiylik) ijtimoiy yordami davlat majburlovi va imperativ huquqiy

normalar vositasida tashkil qilinishi mumkin emas. Chunki, O‘zbekiston Respublikasi Koonstitutsiyasining 53-moddasiga ko‘ra “Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir” va 54-moddasiga muvofiq esa “Mulkdor mulkiga o‘z xoxishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi”. Ushbu Konstitutsiyaviy qoidalar jismoniy va yuridik shaxslar mol-mulkini ulardan xoxishlariga zid ravishda olib qo‘yilishini, shu jumladan turli tazyiqlar ostida xayriya maqsadlari uchun majburiy tarzda jalb etilishini ham qat’iy ma’n qiladi.

Biroq, davlat o‘z organlari orqali yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan va xayriya mablag‘larini tasarruf etishga vakolatli bo‘lgan davlat va jamoat organlari tomonidan ushbu mablag‘lar maqsadli sarflanishi ustidan nazorat olib boradi, turli suiste’ mol xamda talon-tarojlarining oldini olish choralarini ko‘radi.

Nodavlat ijtimoiy himoyasi xususiy-huquqiy munosabatlar sohasiga mansubligi tufayli uni tashkil etish hamda huquqiy tartibga solish asosi bo‘lib eng avvalo – Fuqarolik kodeksi,<sup>1</sup> iqtisodiy faoliyatga oid qonunlar eng avvalo “Mulchilik to‘g‘risida”gi,<sup>2</sup> “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi,<sup>3</sup> “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi<sup>4</sup>,” Jamoat fondlari to‘g‘risida”gi<sup>5</sup>, “ Homiylik to‘g‘risida”<sup>6</sup> gi Qonunlar, ular asosida qabul qilingan turli qonunosti me’yoriy hujjatlari,<sup>7</sup> korxon va tashkilotlarning lokal me’yoriy hujjatlari xizmat qiladi.<sup>8</sup>

Nodavlat ijtimoiy himoyasining tashkil etilishi va amalga oshirilishida ayniqsa O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan 2007 yil 2 mayda O‘RQ-96-son bilan imzolangan “Homiylik to‘g‘risida”gi Qonun muhim o‘rin tutadi<sup>9</sup>.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. Т., Расмий нашр. 2013 й.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. 1990 й., №. 30-31 сон, 371-модда.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. 1991 й., 4-сон, 76-модда.

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. 1999 й., 5-сон, 115 модда..

<sup>5</sup> Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг Қонун ҳужжатлари тўплами. 2003., № 19. 172- модда.

<sup>6</sup> Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг Қонун ҳужжатлари тўплами. 2007.. № 17-18, 174- модда.

<sup>7</sup> Масалан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2004 йил 28 январдаги “ Мехр-мурувват йили” Давлат дастури тўғрисидаги қарори.

<sup>8</sup> Қаранг: Ўзбекистон Касаба уюшмалари Тавсияларида корхона ва ташкilotларда ходимлар ва уларнингг оила аъзолари ижтимоий химоясига доир тадбирлар уларнингг жамоа шартномаларида назарда тутилиши зарурлиги қайд этиб қўйилган.

<sup>9</sup> Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. 2007 , №17-18, 174-модда.

Nodavlat ijtimoiy himoyasi ixtiyoriy hayriya faoliyati hamda nochor-bechora fuqarolarga, ular moddiy-ijtimoiy ta'minoti hamda muhofazasini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat tashkilotlariga nisbatan homiylik qilishga qaratilgan, sidqidildan amalga oshiriladigan ish sifatida asosan fuqarolik huquqiy munosabatdan iborat bo'lib, birinchi navbatda Fuqarolik kodeksi hamda uning asosida qabul qilinadigan qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Nodavlat ijtimoiy himoyasi muxtoj fuqarolarni moddiy muxofaza qilishga, ular ta'minoti bilan mashg'ul bo'lgan tashkilotlarni qo'llab-quvvatlashga jazm etgan yuridik yoki jismoniy shaxs (savob talab) bilan ana shunday hayriya yordamidan bahramand bo'ladigan tomon (yordamga extiyojmand) o'rtasida (ba'zan savob talab bilan turli davlat tashkilotlari, fuqarolar yig'inlari, hayriya va boshqa jamg'armalar o'rtasida ham) yuzaga keladi.

Hayri-exson qilish bilan bog'liq bo'lgan o'zaro munosabatlarda huquqiy tomoniga qaraganda ma'naviy-axloqiy tomoni bir muncha kuchli. Chunki, bu faoliyat qadimdan xalqimizning ma'naviy-axloqiy, diniy va milliy qadriyati sifatida shakllanib, rivojlanib davom etib kelgan. Bunday munosabatga kirishuvchi shaxslar, (ayniqsa savob talablar) uning huquqiy tomonlarini odatda o'ylamaydilar. Hayri-exsonning beg'araz va sidqidildan, e'vaziga biror manfaat etishini ta'ma qilmasdan, faqat savob umidida, miskinlarga yaxshilik qilish pok niyatlarda amalga oshirilishi uning huquqiy jihatlarini ikkinchi o'ringa surib qo'yadi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan buyon amalga oshirib kelayotgan ijtimoiy himoya siyosati bajarayotgan muhim funksiyalardan biri – xalqimiz ma'naviy yuksalishiga erishish, yoshlarni mehr-muruvvatli va oqibatli insonlar qilib tarbiyalash, yuksak ma'naviy-axloqiy an'analarimiz, bebaxo milliy, diniy, tarixiy qadriyatlarimizni ularning ongiga singdirish, xalqimiz yaratgan ma'naviy boyliklardan yosh avlodni komil inson qilib voyaga etkazishda unumli va maqsadga muvofiq foydalanishdan iboratdir.

Ijtimoiy himoya, hayriya va homiylik faoliyatining axloqiy-ruxiy jihatlariga bir qator mualliflar o'z e'tiborlarini qaratganlar hamda ularning o'zaro ta'siri bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'rganganlar<sup>1</sup>.

Yu.f.d. M.A. Usmonovning qayd etishicha: "Inson – ijtimoiy subyekt, shaxs sifatida ijtimoiy munosabatlar maxsulidir va ushbu nuqtai nazardan uning ijtimoiy ongiga boshqa shaxslar bilan o'zaro hamkorlik qilish, turli sabablarga ko'ra nochor ahvolga tushib qolganlarga yordam ko'rsatishi, o'z yaqinlari xaqida g'amxo'rlik qilish kabi gumanistik hislatlar jo qilingandir. Qiyin ahvolga tushib qolgan o'z qavmlariga yordam qilish hatto biologik instinkt sifatida xayvonlar to'dasi (ayniqsa – fillar, delfinlar va hatto qushlarda ham) uchrab turadi hamda bunday hatti-harakatning biologik motivlari sifatida keyinchalik o'zi ham ana shunday og'ir ahvolga tushib qolganida yordamga umid qilish, biologik avlodni davom etdirish istagi qabul qilinishi mumkin".<sup>2</sup>

Insonlar o'rtasidagi mexr-oqibat, ojizlarga ko'mak ko'rsatish, hayri-saxovatli bo'lish kabi munosabatlar o'z qadimiy ildizlariga ko'ra yuqoridagi biologik motivlarga borib taqalishi mumkinligini inkor etmagan holda hayvonot olamidagi o'zaro yordam va hamkorlik qilish biologik instinkti bilan insoniy munosabatlar o'rtasida inson zotining o'ziga xos mavjudot, ongli va maqsadli sub'ekt sifatidagi o'zaro ijtimoiy aloqalariga asoslanuvchi murakkab jarayon o'rtasi beqiyos farqlar mavjudligi alohida ta'kidlanmog'i lozim.

Eng avvalo, insonlar o'rtasidagi munosabatlar vujudga kelishi, yuz berishi ming yillar davomida shakllantirilgan, oqilona prinsiplarga tayanuvchi qat'iy axloqiy, diniy, etnik, milliy va boshqa ramkalarda amalga oshiriladi. Bunday etnik qoidalarga amal qilmaslik, ularni buzilishi jamiyat tomonidan albatta qoralanadi, bunday hatti-harakatni sodir etgan shaxsni jazolanishga olib keladi.

---

<sup>1</sup> Р.Ж. Рўзиев. Миллий қонунчилигимизда ижтимоий ҳимоянинг ҳуқуқий кафолатларини такомиллаштириш. Миллий қадриятлар ва шахс ижтимоий ҳимоясининг ҳуқуқий механизмларини такомиллаштириш мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари. Т., ИИВ Академияси, 2007., 20-23-б.; Ахмедов Д.Қ. Конституция ва ёшлар. Ёшларга оид давлат сиёсатининг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш мавзусидаги илмий-назарий конференция материаллари тўплами. Т.;- ТДҲИ, 2008., 6-10-б. ва бошқалар.

<sup>2</sup> Усмонова М.А. Ўзбекистонда ижтимоий ҳимоя: фуқаролик ҳуқуқий жиҳатлари. Монография. Т., ТДҲИ, 2005 й., -Б.42.

Tadqiqotchilar homiylik va hayriya faoliyati asosida axloqiy qoidalar, milliy, diniy va boshqa qadriyatlar yotadi, degan fikrlariga to'la qo'shilgan holda bunday munosabatlarni tartibga solinishida huquqiy shakl hamda vositalar ham ishtirok etishi, ular bunday munosabatlar barqarorligi, ijtimoiy adolatga amal qilinishi, huquqlar suiste'mol qilinishiga yo'l qo'yilmasligi, munosabat ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy muvozanatni saqlab turilishida muhim o'rin tutishi ko'rsatib o'tilmog'i lozim.

Yuqorida qayd etilganidek, ijtimoiy himoyaning huquqiy asoslarini o'zaro teng subyektlar o'rtasidagi xususiy aloqalarni tartibga solish vazifasi yuklatilgan qonunchilik tarmog'i sanalmish fuqarolik huquqi tashkil qiladi.

Ijtimoiy himoyaga oid munosabat ishtirokchilari mulkiy, tashkiliy va boshqa huquqiy maqomlari, o'zaro huquqiy aloqa asoslari, uning mazmuni kabi qator masalalar fuqarolik qonunchiligi normalarida o'z aksini topadi.

Jumladan, huquqiy munosabat asosini tashkil tuvchi fuqarolik huquq va burchlari yuzaga kelish asoslari, ularni amalga oshirish, huquqlarni himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan masalalar, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (keyingi o'rinlarda FK) 2-bobida (8-15 moddalar) nazarda tutilgan. Ushbu bobdagi normalar fuqarolik huquq va burchlari yuzaga kelish asoslarini belgilab, ularni amalga oshirishning asosiy tamoyillarini ochib beradi, buzilgan fuqarolik huquqlarini himoya qilishning usullari hamda vositalarini bayon etadi. Ushbu bobdagi moddalar nodavlat ijtimoiy himoyasini amalga oshirishda qatnashuvchi shaxslar, bunday himoyadan foydalanuvchilar o'rtasida yuz beradigan ijtimoiy munosabatlar mazmunini belgilashga xizmat qiladi.

FK ning 8-moddasi fuqarolik huquqiy munosabat vujudga kelishining asosi sifatida bitim va shartnomalarni ko'zda tutadi. Bunday bitimlar qonunda maxsus ko'rsatib qo'yilgan (masalan, xadya, mulkdan tekin foydalanish, ijara, renta va boshqalar) bo'lishi yoki qonunda nazarda tutilmagan bo'lsada, ammo, uning talablariga zid kelmaydigan bo'lishi mumkin (masalan, ma'lum huquqlardan voz kechish, imtiyozlar berish va boshqalar).

Ijtimoiy himoyaga oid munosabat asosi sifatidagi bitimlar tegishli huquq va majburiyatlar yuzaga keltirishi, uning ishtirokchilari huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilishi va ayni paytda davlat belgilagan huquqiy tartib-qoidalar, jamiyatning ma'naviy-axloqiy tayanchlariga putur etkazmasligi lozim.

Qonun bitimlar (shartnomalar)ning shakliga, mazmuniga hamda tuzilishi tartibiga nisbatan muayyan talablarni qo'yar ekan, yuqoridagi oqilona muloxazalarga asoslanadi, belgilab qo'yilgan qoidalarga amal qilishni tuzilgan bitimni xaqiqiy emas deb topish, uning ishtirokchilari huquqlarini himoya qilmaslik va nihoyat g'ayriqonuniy bitimni qasddan tuzgan ishtirokchilarga nisbatan huquqiy jazo qo'llash taxdidi bilan barchaga majburiy qilib belgilaydi.<sup>1</sup>

FKda shaxs va uning fuqarolik huquqiy maqomi masalalariga katta e'tibor berilgan. Uning 2-bobi fuqarolik huquqi subyekti sifatida jismoniy shaxs – fuqarolar statusiga bag'ishlanadi.

Ijtimoiy himoyaga oid munosabatlarda ayniqsa ijtimoiy yordam ko'rsatuvchi sifatida qatnashayotgan tomon fuqarolik huquqiy statusini to'g'ri belgilash muhim ahamiyatga ega. Chunki, fuqarolik huquq layoqati (huquqlarga ega bo'lish, majburiyatni zimmasida bo'lishi) deyarli barcha fuqarolarga taalluqli bo'lsada, ammo muomala layoqati barchaga xos huquqiy xususiyat emas. Fuqarolik muomala layoqati hosil bo'lishi uchun muayyan biologik hamda ijtimoiy faktorlar yig'indisi mavjud bo'lishi talab etiladi. Prof. I.B. Zokirov va dotsent M. X Baratovlarning qayd etib o'tishlaricha: “Muomala layoqati - fuqarolarning o'z xarakatlari bilan fuqarolik huquqlari va burchlariga ega bo'lishi, ularni o'zgartirishi va bekor qilishi mumkin bo'lgan layoqatidir. Boshqacha aytganda, muomala layoqati Fuqaroning butun imkoniyatini, salohiyatini yuzaga chiqaradigan layoqatdir”<sup>2</sup> Muomala layoqatining zaruriy komponentlari qatoriga:

- a) Shaxsning muayyan yoshga etganligi;
- b) Jismoniy va ruxiy jihatdan sog'-salomatligi, aql-hushi joyidaligi;

---

<sup>1</sup> Рахмонкулов Х.Р. Роль и сущность гражданского правового договора в условиях рыночной экономики, Монография. -Т.; Фан., 1994., с. 45.

<sup>2</sup> Зокиров И.Б., Баратов М.Х. Вояга етмаган болаларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари. Хотин-қизлар ва болаларнинг ҳуқуқларига оид қонун қафолатлари. Оммабоп юридик маълумотнома. Т.; Ўзбекистон, 2000., 112 б.

c) Muomala layoqatining cheklab qo'yilmaganligi;

d) Muayyan hatti-xarakatni amalga oshirishga zarur vakolati borligi kabi talablar kiradi.

Fuqarolik qonunchiligida belgilab qo'yilgan umumiy qoidalarga ko'ra faqat 18 yoshga to'lgan aqli raso fuqarolargina to'la muomalaga layoqatli sanaladi. SHu sababli 18 yoshga to'lmagan shaxslarning hadya, hayri-exson qilish orqali ijtimoiy himoyaga oid munosabatlarda bevosita ishtirok etishlariga odatda yo'l qo'yilmaydi.

Biroq, FKning 28-moddasiga ko'ra:

O'n olti yoshga to'lgan voyaga etmagan shaxs mehnat shartnomasi bo'yicha ishlatilgan bo'lsa yoki ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoxud homiysining roziligiga binoan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ulanayotgan bo'lsa, u to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi mumkin.

Voyaga etmagan shaxsni to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilish (emansipatsiya) ota-onaning, farzandlikka oluvchilarning yoki homiyning roziligi bilan vasiylik va homiylik organining qaroriga muvofiq yohud, bunday rozilik bo'lmagan taqdirda, sudning qarori bilan amalga oshiriladi.

Ota-ona, farzandlikka oluvchilar va homiy emansipatsiya qilgan voyaga etmaganning majburiyatlari bo'yicha, xususan, u ekazgan zarar oqibatida kelib chiqqan majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 22-moddasida ko'rsatilganidek:

Fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala laeqati) u voyaga etgach, yani o'n sakkiz yoshga to'la hajmda vujudga keladi. Voyaga etgunga qadar qonuniy asosda nikoxdan o'tgan fuqaro nikoxdan o'tgan vaqtdan e'tiboran to'la hajmda muomala layoqatiga ega bo'ladi.

Nikoh tuzish natijasida ega bo'lingan muomala layoqati o'n sakkiz yoshga to'lmashdan turib nikoh bekor qilingan taqdirda ham to'la saqlanib qoladi.

Nikoh haqiqiy emas deb topilganidan sud voyaga etmagan er (xotin) sud belgilangan paytdan boshlab to'la muomala layoqatini yo'qotganligi haqida qaror qabul qilishi mumkin.

Yuqoridagi huquqiy normalar asosida qonuniy asoslarga ko'ra fuqaroning muomala layoqati u 18 yoshga to'lmasidan avval ham vujudga kelishi mumkin va u ana shu paytdan boshlab voyaga etgan shaxslarga yuridik jihatdan tenglashtiriladilar hamda har qanday fuqarolik huquqiy munosabatlarda, shu jumladan hayriya bilan bog'liq fuqarolik huquqiy bitimlar tuzilishida ham ishtirok etishi mumkin.

Ushbu xolatdan kelib chiqqan xolda amaldagi qonunchiligimizda mavjud bo'lgan bir mavhumlikka e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Xususan, O'zbekistonda Respublikasi Mehnat kodeksining 77- moddasiga ko'ra: "Ishga qabul qilishga o'n olti yoshdan yo'l qo'yiladi. O'n besh yoshga to'lgan shaxslar ota-onasidan birining yoki ular o'rnini bosuvchi shaxsning yozma ravishdagi roziligi bilan ishga qabul qilinishi mumkin.

Yoshlarni mehnatga tayyorlash maqsadida umumta'lim maktablari, hunar-texnika bilim yurtlari va o'rta maxsus o'quv yurtlarining o'quvchilarini o'n to'rt yoshga to'lganlaridan keyin ota-onasidan birining yoki ular o'rnini bosuvchi shaxsning roziligi bilan bolalarning sog'lig'iga va kamol topishiga ziyon etkazmaydigan va ta'lim olish jarayonini buzmaydigan engil ishlarni o'qishdan bo'sh vaqtlarida bajarish uchun ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladi". O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 27- moddasiga binoan: "O'n to'rt yoshli voyaga etmaganlar ota-onalari, farzandlikka oluvchilar va homiylarining rozilgisiz o'z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini mustaqil ravishda tasarruf etishga xalidirlar". Demak, ushbu holda 14 yoshga etgan bunday shaxslar o'zlari ishlab topgan ish xaqi va boshqa mehnat daromadlarini tassarruf qilishda to'la muomalaga layoqatlidirlar, deyishga barcha asoslar mavjuddir.

Shunday ekan, o'n to'rt yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan voyaga etmagan shaxslarning o'zlari ishlab topgan mehnat daromadlarini tasarruf qilishlari yuzasidan barcha cheklovlar bekor qilinishi, shu jumladan O'zbekiston

Respublikasining “Homiylik to‘g‘risida”gi qonuning<sup>1</sup> 5- moddasi o‘zgartirilib, yangi tahrirda ta’riflanishi va unda: “O‘n to‘rt yoshdan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan fuqarolar o‘zlari ishlab topgan mehnat daromadlarini hayriya maqsadlarida sarf etishlari mumkin va uning uchun ota-ona yoxud boshqa qonuniy vakillarining oldindan roziligi olinishi talab etilmaydi” degan yangi ikkinchi qism kiritilishi maqsadga muvofiq. Bunday qoidaning kiritilishi yosh avlod ma’naviy tarbiyasiga ijobiy ta’sir qiladi, o‘smirlik chog‘laridanoq savob ishlarda qatnashish orqali o‘zini to‘laqonli fuqaro sifatida xiss qilishiga yordam beradi. Zeroki, ma’naviyati yuksak, savob va xayrli ishlarga intiladigan yoshlarni tarbiyalash Respublikamiz Prezidenti tomonidan ilgari surilgan kelajakni ishonchli qo‘llarga topshirish maqsadiga to‘la mos keladi

Homiy va hayriya faoliyati ishtirokchisi sifatida chet el fuqarolarining ijtimoiy himoya ishlarida qatnashishlari hamda bu masalada fuqarolik huquqiy bitimlar tuzishlariga oid muayyan cheklovlar, maxsus tartib-qoidalar belgilab qo‘yilishi mumkin. Bunda mamlakat xavfsizligi, milliy va davlat suveriniteti, fuqarolar xuquq-manfaatlari hamda boshqa ijtimoiy-siyosiy omillar hisobga olinishi mumkin. Chunki, bugungi jahon amaliyoti va ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasida homiylik va hayriya aktlari niqobi ostida terrorizm hamda ekstremizmni, milliy hamda diniy mentalitetga yot bo‘lgan va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni buzishga yo‘naltirilgan, g‘arazli demokratiyani eksport qilish maqsadini ko‘zlovchi hatti-harakatlar sodir etilishi kuzatilmoqda.<sup>2</sup>

O‘zbekiston ham yosh milliy davlat sifatida hayriya faoliyati amalga oshirilishini tashkil etib va bu sohadagi nazoratni yo‘lga qo‘yar ekan, o‘z milliy qonunchiligida masalaning ushbu jihatlarini ham to‘liq va aniq hisobga olmog‘i lozim.

Ijtimoiy muxofaza faoliyatida ishtirok etuvchi sub’ektlar o‘rtasida nodavlat yuridik shaxslar va boshqa hayriya tashkilotlari fuqarolik huquqiy maqomini

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. 2007., 17-18 сон, 174 – модда.

<sup>2</sup> Махкамбоев П.А. Подрывная деятельность иностранных спецслужб на территории Афганистана и Средней Азии в XIX-XX вв. // Сб. СНБ Республики Узбекистан.-1995.-№2 , -С. 28-30.

to'g'ri va to'liq belgilanishi muhim amaliy ahamiyatga ega, nazariy-ilmiiy jihatdan esa ishlanmog'i kerak bo'lgan dolzarb masalalardan bo'lib sanalishi shubhasizdir.

Amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi nodavlat mulkchiligiga tayanuvchi sub'ektlarni tijoratchi hamda notijorat tashkilotlari deya muhim ikki guruhga ajratar ekan, ularning birinchisiga tadbirkorlik sub'ektlari sifatida qarab, qo'lga kiritgan sof foydalarini qonun doirasida istalgan maqsadda sarflash, shu jumladan hayriya faoliyatida ishtirok etish huquqini beradi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 8-moddasiga ko'ra tadbirkorlik sub'ekti : "Tadbirkorlikdan cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olish va uni o'z ixtiyoriga ko'ra tasarruf etish huquqiga ega".<sup>1</sup>

Ana shunday qoidalar "Xususiy korxonalar to'g'risida"gi,<sup>2</sup> "Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi<sup>3</sup> va boshqa qonunlarda xam belgilab qo'yilgan.

Davlat mulkchiligiga asoslangan korxonalar va tashkilotlarning hayriya faoliyatida ishtirok etish imkoniyatlari bir muncha cheklangan bo'lib, ular qonun hujjatlari doirasidagina yo'l qo'yiladi. Bu masalada ayniqsa byudjetdan ta'minot oluvchi muassasalar uchun alohida qat'iy talablar belgilangan. Chunki ular faoliyati byudjetdan ajratiladigan mablag'lar smetasi asosida amalga oshadi. Ammo, davlat byudjet muassasalari ham qonun yo'l qo'ygan doirada tadbirkorlik ishlarini amalga oshirishlari, pullik xizmatlar ko'rsatishlari hamdan undan tushgan moliyaviy mablag'larni qonun hujjatlariga muvofiq mustaqil tasarruf etishlari mumkin.

Tijoratchi bo'lmagan (notijorat) tashkilotlar nodavlat ijtimoiy himoyasida asosan hayriya faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchilar sifatida qatnashadilar.

Ijtimoiy yordam ko'rsatish maqsadida homiylik hayriya faoliyatida qatnashish huquqi har qanday yuridik shaxslarga, shuningdek yuridik shaxs ta'asis qilmasdan ish yurituvchi tadbirkorlarga berilgan bo'lsa, bunday faoliyat bilan ustav

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 2000 й., №5-6, 140-модда.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. 2004 й., №3, 28-модда.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. 2004 й., №40-41, 433-модда.

maqsadi sifatida foydalanish huquqi har qanday yuridik va jismoniy shaxslarga ham berilavermaydi.

Ijtimoiy himoyaning tobora kengayib, jamiyat hayotidagi muhim voqeaga aylanib borayotganligi, bunda ayniqsa ijtimoiy zaif aholi qatlamlarini jamiya tomonidan, nodavlat yo‘li bilan ijtimoiy himoyalash mavqeining ortish tendensiyasi aniq-ravshan ko‘zga tashlanayotganligi yangi muammo hamda vazifalarni ilgari surmoqda. Ijtimoiy himoyaning yangi, avval ma’lum bo‘lmagan shakllarini joriy qilish, yangi usullarni o‘ylab topish va qo‘llash ana shunday vazifalardan sanaladi.

Muayan darajada mehr-oqibatni susaygani, o‘zbek xalqiga xos bo‘lmagan yangicha salbimiy qarash va qadriyatlarni shakllanganligi shuni ifodasi bo‘lib, bunday tendetsiyalar ayniqsa yoshlarimizga salbiy ta’sir qilmioqda. Meribonlik uylari, muruvvat uylarida davlat ta’minotiga olingan shaxslar sonining keyingi 50-60 yil davomida bir necha o‘n barobar o‘sganligi, hatto ota-onasi tirik bo‘lganlari xolda bolalarning etimlar uyida saqlanishi, voyaga etgan hamda moddiy jihatidan yaxshi ta’minlangan farzandlari bo‘laturib qariyalar uyiga joylashtirilgan shaxslar mavjudligi bugungi jamiyatimiz ma’naviy-axloqiy jihatdan bemor ekanligini va jiddiy muloajaga muxtoj ekanini ko‘rsatadi. Zarur qonunlarni ishlab chiqilishi va qabul qilinishi ana shunday “davolash kursi”dan iborat bo‘lishi mumkin, deb hisoblaymiz.

Yu.f.d. M.A. Usmonovanning qayd etishicha: “Metsenatlik – ijtimoiy himoyaning o‘ziga xos shakli bo‘lib, eng oliyjanob va ezgu maqsadlarni, ya’ni mamlakat fani, adabiyoti va san’ati, iste’dodlarini ro‘yobga chiqarish istiqbollari nazarda tutib amalga oshiriladigan homiylikdir. Bugungi kunda “Metsenatlik to‘g‘risida” maxsus qonun qabul qilinishi lozimligi o‘ylab ko‘rilishi ana shunday ishga jazm etgan yuridik va jismoniy shaxslarni rag‘batlantirishning huquqiy kafolatlari yaratilishi muhim ahamiyatga ega”.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Усмонова М.А. Ўзбекистонда ижтимоий ҳимоя: фуқаролик ҳуқуқий жиҳатлари. Монография. Т., ТДҲОИ, 2005 й., -Б.181.

Ijtimoiy himoyani rivojlantirish va takomillashtirish kerakligi xaqida soʻz yuritilganida koʻz oldimizda paydo boʻladigan vazifalardan yana biri ijtimoiy himoya tizimi sohasidagi qonunchilikni isloh qilish vazifasidir.

Ushbu bobga xulosa qilib, quyidagilarni qayd etish oʻrinli boʻladi:

- Birinchidan, mamlakatimiz bozor munosabatlari tomon ildam taraqqiy topib borayotgan hamda hayotning barcha jabhalarida erkin raqobat avj olayotgan sharoitda jamiyatning obʻektiv koʻrsatkichlari bilan oʻzgalar yordami hamda jamiyat koʻmagiga muxtoj boʻlgan zaif qatlamlarini (oʻz salomatligi, yoshi, boshqa holatlarga koʻra) ijtimoiy jihatdan obʻektiv zarurat. Shunga koʻra oʻtish davrida “Kuchli ijtimoiy himoyalash” prinsipi va shunga muvofiq keluvchi kuchli jtimoiy siyosat yuritilayotganligi – eng oqilona yoʻl;

- Ikkinchidan, Oʻzbekiston davlati demokratik va insonparvar davlat sifatida ijtimoiy himoyaga kuchli eʼtibor qaratayotgani aholi manfaatlariga ham, davlat va jamiyat manfaatlariga ham toʻla mos keladi, fuqarolarning ijtimoiy himoyadan foydalanish yuzasidan konstitutsiyaviy huquqlari toʻla kafolatlanishi va roʻyobga chiqarilishiga, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va barqaror taraqqiyotga xizmat qiladi.

- Uchinchidan, ijtimoiy himoya obʻektiv extiyoj ekan, uning shakl va vositalarni takomillashtirib borilishi, zamon talablariga mos keluvchi yangi imkoniyatlar axtarib topilishi lozim;

- Toʻrtinchidan, ijtimoiy himoyaning tarixan qaror topgan va milliy-axloqiy qadriyatlarimizga mos keluvchi, sobiq ittifoq davrida noanʻanaviy boʻlgan nodavlat ijtimoiy himoyasi avj oldirilishi, uning huquqiy hamda tashkiliy bazasi kengaytirilishi va mustahkamlanishi kerak.

Bozor tomon harakat qilingani sari, ijtimoiy siyosatning ustuvor jihatlari, aholiga ijtimoiy madad berish va uni himoyalash choralari ham oʻzgarib boradi. Islohotning turli bosqichlariga ijtimoiy siyosatning oʻziga xos qoidalari mos keladi”.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т., Ўзбекистон, 1994 йил, -Б.51.

## **II-BOB. NODAVLAT IJTIMOYIY HIMOYASI VA UNI AMALGA OSHIRISHNING SHARTNOMAVIY YO‘LLARI**

### **II.1. Ijtimoiy himoya va fuqarolik huquqiy shartnomalardan foydalanish masalalari**

Jamiyatimiz bozor munosabatlariga tobora ko‘proq o‘tib borar ekan, uning kundalik hayoti hamda ijtimoiy-iqtisodiy holatida tobora ko‘proq ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda va bu islohotlar dinamikasi bilan mamlakat taraqqiyot dinamikasi uyg‘un ekanligini aniq-ravshan ko‘rsatib turibdi.

Ana shunday tez o‘zgarib borayotgan voqeilik, mamlakat iqtisodiy qudratini uzluksiz ortib borayotganligi, odamlar turmush sharoitlarini yaxshilanayotganligi ob‘ektiv ravishda yordamga muhtoj bo‘lgan aholi tabaqalariga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy himoya choralarining ham doimiy ravishda sifat jihatdan yaxshilanib borishi, samaradorligini ortishi, ijtimoiy yordamning avval ma‘lum bo‘lmagan yangi va noan‘anaviy shakllarini qo‘llash zaruratini qat‘iat bilan ilgari surmoqda. Yu.f.d. M.A. Usmonova to‘g‘ri qayd etganidek: “Bozor munosabatlariga o‘tish davrining qiyinchiliklaridan fuqarolarni muxofaza qilish, ijtimoiy himoyalashning iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini o‘rnatish hamda ularni benuqson ishlashini ta‘minlash davlatning shaxs oldidagi Konstitutsiyaviy majburiyatidir”.<sup>1</sup> Biz ushbu fikrga qo‘shilgan holda ushbu huquqiy mexanizmlarni uzluksiz mukammallashtirib, samaradorligini yuksaltirib borish ham davlat va jamiyatning muhim vazifalari jumlasiga kiradi, deya qo‘shimcha qilgan bo‘lar edik.

Bugungi kunda davlat ijtimoiy himoyasi bilan bir qatorda jamiyat va uning a‘zolari keng jalb etilgani xoldagi nodavlat ijtimoiy himoyasi tobora ko‘proq oldingi marraga chiqmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov ko‘rsatib o‘tganidek: “Bozor munosabatlariga o‘tib borilgani sari, mehnatkashlarning o‘zlariga va xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarga ko‘proq iqtisodiy erkinliklar berila

---

<sup>1</sup> Усмонова М.А. Тадбиркорлик субъектлари ва ижтимоий ҳимоя. Ўзбекистонда кичик ва хусусий бизнесни ривожлантириш муаммолари. Илмий-амалий конференция материаллари. -Т.; ТДЮИ, 2002 йил, -Б.133.

borilgani sari davlat ijtimoiy muxofazasiga oid vakolatlarni muqobil tuzilmalarga topshirish lozim.

Aholini ijtimoiy himoyalash, odamlarning moddiy ahvolini yaxshilash vazifalarini hal qilishda davlat manbaalari bilan bir qatorda mehnat jamoalarining, jamoat tashkilotlarining, hayriya tashkilotlarining (“Navro‘z”, “Mahalla”, “Mehr-muruvvat” va boshqa hayriya jamg‘armalarining) mablag‘lari faol ishga solinmog‘i kerak. Ijtimoiy himoyalash davlatning ham, jamoat tashkilotlarining ham, turli hayriya jamg‘armalarining ham asosiy vazifasi bo‘lmog‘i lozim”.<sup>1</sup>

Nodavlat ijtimoiy himoyasini kengaytirish, ana shu maqsadlar uchun xususiy sub’ektlar moliyaviy va moddiy manbalarini jalb etishni kuchaytirish vazifasi dolzarb qilib qo‘yilar ekan, uning huquqiy bazasini qujudga keltirish hamda mustahkamlash lozimligi ham tobora katta ahamiyat kasb etmoqda.

Ma’lumki, nodavlat ijtimoiy himoyasi turli huquq sohalariga (masalan, oila huquqi, mehnat huquqi, tadbirkorlik (xo‘jalik) huquqi va boshqalar) asoslansada, ularning barchasi uchun yuridik negiz, birlamchi manba vazifasini fuqarolik huquqi bajarishi tayindir. Chunki, mulkiy munosabatlar va ularning mazmuni, bu munosabatlarda ishtirok etuvchi shaxslar, ularning huquqiy maqomi, mulkiy vakolatlari, mulkni egallash, undan foydalanish va uni tassarruf qilish bilan bog‘liq munosabatlar chog‘ida bu ijtimoiy munosabat ishtirokchilarining huquq hamda majburiyatlari, javobgarliklari masalalarini tartibga soluvchi universal norma va qoidalar aynan fuqarolik huquqiga oid qonunchilik tizimida nazarda tutilgandir.

Avvalo shuni nazarda tutish kerakki, nodavlat mablag‘ manbalaridan, xususiy huquqiy tartibda amalga oshiriladigan ijtimoiy himoya, u kim tomonidan va qanday ko‘rinishda amalga oshirilishidan qat’iy nazar hayriya aktini sodir etayotgan mulk egasi tomonidan sodir etiladigan irodaviy-ongli, ixtiyoriy va beg‘araz hatti-harakat bo‘lib, muayyan huquqiy oqibat yuz berishini nazarda tutadi. Bu huquqiy oqibat – xadya qiluvchi mulkdorda o‘z mulkiga nisbatan huquqlarini barham topishida, ijtimoiy himoya qaratilgan shaxsda esa mulkiy huquqlar yuzaga kelishiga qaratiladi. Ya’ni, ijtimoiy himoya harakatida qatnashuvchi shaxs uchun

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т., Ўзбекистон, 1994 йил, -Б. 54.

bu harakat har doim mulkka egalik huquqini almashtirilishiga qaratilgan fuqarolik huquqiy bitimdan iborat.

Bunday bitim bizning nazarimizda bir tomonlama ham, ikki tomonlama ham, shuningdek, ko'p tomonlama xam bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, islom dini aqidalari va islom axloqi "Bir qo'ling qilgan hayru-sadaqani ikkinchi qo'ling bilmasligi lozim" degan yuksak insoniy prinsipga amal qiladi. Ya'ni, nochor va qiynalib qolgan shaxslarga qilingan marhamat ovoza qilinmasligi, eng muhimi hayri-exson minnatli bo'lmasligi, undan foydalanuvchi shaxs sha'ni va qadr-qimmatiga hech bir soya solmasligi lozim. Shunga ko'ra ijtimoiy himoyalashga qaratilgan bitimlarning o'zgalar ko'zidan pana qilinishiga katta ahamiyat beriladi va bunday bitimlar ba'zan hatto hayriya yordami oluvchining o'ziga ham ma'lum qilinmasdan sodir qilinadi. Shunga ko'ra ijtimoiy himoyaga qaratilgan bitimlarning bir tomonlama ya'ni, ijtimoiy himoya yordami ko'rsatuvchining bir tomonlama xoxishi bilan amalga oshiriladi.

M.A. Usmonova to'g'ri qayd etganidek: " Insoniy munosabatlaridagi o'zaro mehr-muruvvat, o'jizlarini qo'llash, ularga yordam ko'rsatish, shuningdek diniy g'oyalar bilan sug'orilgan yoki xalqning turli an'analari, marosimlari, bayramlarida xam o'z ifodasini topgan. Bunga yurtimizda ming yillardan buyon bayram sifatida, yangi yilning boshlanishi sifatida keng nishonlanib kelinayotgan Navro'z yaqqol misol bo'la oladi va uning asosiy g'oyasi hamon insonlarning o'zaro, ayniqsa qariyalar, yosh bolalar, beva-bechoralarga yordam ko'rsatishdan iborat ekanligi diqqatga sazovordir."<sup>1</sup>

Ammo, shu bilan birga ijtimoiy himoya maqsadlariga xizmat qilishi mumkin bo'lgan bitimlar tuzilishiga ma'muriy yoki boshqa shakldagi taz'iyq o'tkazish, "Ixtiyoriy-majburiy" hayriya aktlarini amalga oshirishga majbur qilish hollari mavjud. Bunda ayniqsa mahalliy hokimiyat organlari tomonidan xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga bosim o'tkazish, bunday talablardan bosh tortgan korxonalarni g'ayriqonuniy tarzda tekshirish, "Tirnoq ostidan kir qidirishga

---

<sup>1</sup> Усмонова М.А. Ўзбекистонда ижтимоий ҳимоя: фуқаролик ҳуқуқий жихатлари.-Т.; ТДЮИ, 2005.,-Б. 45.

urinish” faktlari Prezidentimiz tomonidan ham, O‘zbekiston Respublikasi Xukumati tomonidan ham muntazam va qat’iy ravishda qoralanib kelmoqda.

Majburlash orqali ijtimoiy himoya aksiyalarida ishtirok etdirish yuzaki qaraganda nodavlat ijtimoiy himoyasi miqyosi kengayishiga, unda ishtirok etuvchilar soni ko‘payishiga, ko‘proq moliyaviy mablag‘lar jalb etilishiga sabab bo‘ladi hamda ko‘zlangan maqsadga tezroq erishish imkonini beradi. Lekin, uning zararli oqibatlari kutiladigan foydadan bir necha barobar ko‘pdir va bu zarar masalaning moddiy jihatidan ko‘ra ma’naviy-axloqiy tomoniga ko‘proq taalluqli.

Xususan, birinchidan, tadbirkorlik sub’ektlarining mulk daxlsizligiga oid konstitutsion kafolatlari poymol etiladi. Bu esa qonuniylik prinsipi buzilishiga, qonunning ustuvor ekanligiga ishonchni susayishiga va nihoyat bu sohadagi davlat siyosatining ijtimoiy adolat talablariga mosligi yuzasidan shubha paydo bo‘lishiga, ikkinchidan bitim (shartnoma) tuzishning ixtiyoriyligi, shaxs bu masalada mustaqil qaror qabul qila olish huquqiga ega ekanligi yuzasidan belgilangan erkinlikni buzilishiga olib keladi. Bularning barchasi o‘zaro qo‘shilgan holda nochorlarga yordam qo‘lini cho‘zish, mehr-oqibatli bo‘lish, ijtimoiy himoyaning ommalashuvi va keng quloch yozishiga to‘g‘anoq bo‘ladi, oliyjanob hamda yuksak ma’naviy-axloqiy g‘oyani obro‘sizlanishiga, odamlar ko‘ngli sovishi va xafsalasi pir bo‘lishiga olib keladi. Rahbarlar odamlar bilan yuqori saviyada axloqiy-tarbiyaviy ishlay olmaydigan, tashkilotchilik qobiliyati va o‘ziga ishontirish mahorati etishmagan joylardagina shunday majburlash usullariga murojaat qilinadi. Ya’ni aql va bilim etishmagan joyda qo‘pol kuchga, ssivilizatsiyalashmagan vositalarga murojaat qilinadi.

Shu sababli ijtimoiy himoya maqsadlarida yuqoridan turli-tuman topshiriqlar berilishi, ko‘rsatkichlar belgilanishi hamda ularning bajarilishi talab etilishi davlatimiz yuritayotgan ijtimoiy siyosat mazmun-mohiyati hamda maqsadiga mos kelmaydi, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati tamoyillariga ziddir.

Ijtimoiy himoya maqsadlarida tuziladigan bitimlarning umumiy fuqarolik huquqiy xususiyatlari tavsiflanganida shuni qayd etib o‘tish joizki, ular odatda bir

tomonlama, tekin (begʻaraz) real, ogʻzaki (tegishli hollarda yozma) shaklda tuziladigan bitimlardir.

Ularning bir tomonlamaligi shundan iboratki, bunday bitim taraflarining biridan faqat majburiyat (mablagʻ yoki ashyoni topshirish yuzasidan), ikkinchi tarafdan esa huquq (qabul qilib olish huquqi) mavjud boʻladi.

Ushbu nuqtai nazardan amaliyotda ijtimoiy yordam koʻrsatish funksional muassasa (muruvvat uyi) oʻziga xadya tariqasida taqdim etilgan ashyoni qabul qilishdan bosh tortishi mumkinmi degan savol yuzaga keladi. Bizning fikrimizcha bunday holda ijtimoiy yordam muassasasi ijtimoiy himoyani koʻzlab qilingan hayriya yordamini qabul qilishdan bosh tortishi mumkin emas, yaʼni yordamni qabul qiluvchi tomon faqat huquqqa ega degan fikr shubxalidir. SHu sababli mazkur muassasalarning nizomlarida ular ana shunday majburiyatga ega ekanliklari belgilab qoʻyilishi maqsadga muvofiq. Toʻgʻri, hadya tariqasida taqdim qilinayotgan ashyo oʻz xususiyatlariga koʻra ushbu muassasa uchun befoyda yoki inson sogʻligʻi yoxud hayotiga, oʻzga manfaatlariga putur etkazadigan hollarda undan bosh tortish mumkinligi ham nazarda tutilmogʻi maqsadga muvofiq.

Ammo, bizningcha yuqoridagi mulohazalar ijtimoiy himoyaga oid bitimlarning bir tomonlama ekanligiga taʼsir qilmaydi.

Ijtimoiy himoyaga oid bitimlar tekin (begʻaraz) boʻlishi hech bir shubhasizdir. Chunki, qandaydir manfaat olishni moʻljallab (savob olishni oʻylab bunday ishga qoʻl urilishi mustasno, chunki savob olish umidi ham mohiyat jihatidan manfaatni koʻzlash (maʼnaviy manfaat)dan iboratdir) qilinmasligi lozim. Chunki savob ishning asosida gʻaraz yotishi mumkin emas va gʻaraz shaxs tomonidan amalga oshirilgan harakat mohiyatini tubdan oʻzgartirib yuboradi.

Ayni paytda har doim ham maʼlum maqsad koʻzlanmagan holda hayriya ishlariga qoʻl urilmasligi koʻrsatib oʻtilishi kerak.

Masalan, firma hayriya aksiyalarini amalga oshirar yoki bunday tadbirlarda qatnashar ekan, odatda reklama maqsadlarini, oʻzi ishlab chiqargan mahsulotlar, koʻrsatadigan xizmatlarini elga koʻz-koʻz qilish, xaridorlari korpusini kengaytirish, oxir-oqibatda ishlab chiqarishni kengaytirgan holda koʻproq foyda olishni

mo'ljallashi mumkin. Bunga ommaviy axborot vositalarida, radio va televideniya tez-tez o'tkazib turiladigan telehoularni ko'rib ishonch xosil qilish qiyin emas.

Demak, hayriya va ijtimoiy madad berish maqsadlaridagi bitimlar uning taraflari o'rtasidagi munosabatda tekin (beg'araz) bo'lsada, ammo umuman olganda muayyan manfaatni ko'zlab, bivosita manfaatni o'ylab tuzilishi mumkin. Ammo, bu mulohaza ijtimoiy himoyaga oid bitimlarning tekin tuzilishiga oid tabiatiga ta'sir qilmasligi lozim.

Yuridik adabiyotlarda tekin bitimlarning fuqarolik huquqiy o'ziga xosliklari xaqida fan namoyondalarining turli qarashlari mavjud. Ulardan bir guruxi bitimlarning tekin tuzilishi uni tuzayotgan shaxslar bunday bitim tuzish tufayli har qanday foyda (daromad) olishlari mumkinligi qat'ian istisno qiladilar.

Boshqa bir guruh olimlar esa bozor munosabatlari rivojlanib borayotgan sharoitda tekin bitimlardan ham tadbirkorlikni kengaytirish mexanizmi sifatida foydalanish, muayyan ijobiy natijalarga erishish maqsadida foydalanish mumkin ekanligini qayd etadilar.

Bizning fikrimizcha, ikkinchi guruh vakillari mulohazalari o'rinli va bunga hayriya aksiyalaridan reklama maqsadida, raqobatbardoshlikni oshirish yo'li sifatida foydalanilayotgani misol bo'la oladi. Biroq, bu sohadagi egri maqsadni ko'zlash imkoniyati suiste'mol qilinmasligi, ochiqdan-ochiq g'araz niyat nazarda tutilmasligi lozim (masalan, hovli-joyini kelgusida qo'lga kiritishini mo'ljallab kambag'al qo'shnisiga yordam berish, biror manfaat yo'lida harakat qilish).

Ijtimoiy himoyaga oid bitimlar odatda real bo'lib, bitim predmeti sanaluvchi ashyo bir tarafdin ikkinchi tarafning ixtiyoriga topshirilganidan keyin tuzilgan bo'lib sanaladi. Bu narsa hayru-exson pinhona amalga oshirilishi lozimligi xaqidagi tamoyilga mos keladi.

Shu bilan birga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda hayriya bitimlari ham konseptual bo'lishi mumkin. Bunda ko'chmas mulklar, notarial guvohlantirilishi va maxsus tartibda davlat ro'yxatiga olinishi lozim bo'lgan bitimlar nazarda tutiladi.

Ijtimoiy himoyaga qaratilgan fuqarolik huquqiy munosabatlar bitimlarning maxsus turi sanaluvchi shartnomalar tuzilishidan kelib chiqadi. Ijtimoiy himoyaga oid bitim-shartnomalar har doim ikki, ba'zan uch taraf o'rtasida tuzilishi mumkin.

Fuqarolik huquqi nazariyasida shartnomalarga berilgan ta'rifga ko'ra: **shartnoma, bu – ikki yoki undan ko'proq shaxslar o'rtasida huquqlar va majburiyatlar tug'dirishga qaratilgan kelishuvdan iborat.**

Kelishuv, nima masalada va qaysi sohada yuz berayotganidan qat'iy nazar taraflarning o'zaro tengligi, munosabatga kirishishining ixtiyoriyligi, birlarining manfaatlariga qat'iy rioya qilishlari lozimligi kabi tamoyillarga asoslanadi.<sup>1</sup>

Ijtimoiy himoya maqsadlarida har qanday fuqarolik huquqiy shartnomalardan ham foydalanish mumkinmi? degan savol tug'iladi. Ko'pchilik tadqiqotchilar bu savolga ijobiy javob beradilar. Biroq, ayrim olimlarning fikriga ko'ra faqat maishiy xususiyatga ega bo'lgan (odatda jismoniy shaxslar o'rtasida tuziladigan) shartnomalargina bu maqsadga yaroqli bo'lishi mumkin.

Jumladan, dots. I. Anortoyevning qayd etishicha: "Fuqarolik huquqiy shartnomalarning imkoniyatlaridan to'g'ri va samarali foydalanish – fuqarolar turmush darajasini yuksalishi, talab-extiyojlarining to'liq qondirilishiga, demakki etarli himoyalashlariga ko'mak beradi".<sup>2</sup>

**M.A Usmanova, M.A. Akaeva** kabilar ham ushbu fikrni ma'qullaydilar.<sup>3</sup> Biroq, U.N. Do'stovning fikricha: fikricha: "Xo'jalik faoliyatini tartibga solish, tadbirkorlar o'rtasidagi aloqalarga bag'ishlangan mahsulot etkazib berish, qurilish pudrati, bank xizmatlari ko'rsatish kabi shartnomalar fuqarolarning emas balki xo'jalik sub'ektlari manfaatlarini ta'minlanishini nazarda tutadi".<sup>4</sup>

Bizning bu masaladagi qarashimiz birinchi gurux vakillari fikriga o'xshashdir va nazarimizda har qanday fuqarolik huquqiy shartnomalar, ular

<sup>1</sup> Бурханходжаева Х.В. Аҳолига савдо хизмати кўрсатиш соҳасида тadbirkorлик.// Ж. Хўжалик ва ҳуқуқ.2006., Т., ТДЮИ.2006., -Б.95.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг иккинчи қисмига шарҳлар.Т., " Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси нашриёт уйи".1998. –Б.392.

<sup>3</sup> Усманова М.А. Ўзбекистонда ижтимоий ҳимоя: фуқаролик ҳуқуқий жихатлари.Т., ТДЮИ.2005.

Акаева М.А. Контракция шартномаси.. // ж. Хўжалик ва ҳуқуқ. 1999., № 2,б.13-14.

<sup>4</sup> Дўстов У.Н. Кредитлаш: кафолат ва имконият.// ж. Инсон ва қонун.-2005.-№2, -Б. 6.

kimlar o'rtasida (yuridik yoki jismoniy shaxslar o'rtasidami?) bo'lishidan va nima maqsadni ko'zlashidan qat'iy nazar inson manfaatlariga, uning huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, ehtiyojlarini qondirishga qaratilgandir.

Fuqarolik huquqiy shartnomalardan aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadlarida foydalanish to'g'risida so'z ketar ekan, bunday huquqiy vositadan keng ma'noda va tor ma'noda foydalanish nazarda tutilmog'i lozim.

Keng ma'noda olganda har qanday shartnoma, hatto fuqarolik huquqiy bo'lmaganlari ham (masalan, mehnat shartnomasi, sotsial masalalardagi shartnomalar va boshqalar) aholi ijtimoiy himoyasiga xizmat qilishi mumkin. Masalan, qurilish pudrati shartnomalari tuzilishi ish bilan ta'minlash muammolari hal etilishi, ish joylari barpo etilishi yo'li bilan, mahsulot etkazib berish shartnomalari tuzilishi esa ishlab chiqarishni kengaytirilishi, tovarlar assortimentini ko'payishi orqali fuqarolarga ijobiy ta'sir qiladi. Shu sababli tadbirkorlik va xo'jalik faoliyatini tartibga soluvchi shartnomalar tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni hamda ularning huquqiy asoslarini tashkil etuvchi qonunchilik tizimini takomillashtirishga oid tadqiqotlar ham oxir-oqibatda fuqarolarning qonun va shartnomalar orqali ijtimoiy himoyalanganlik darajasini oshirishga qaratilgan vositalardan bo'lib hisoblanmog'i lozim.

Ijtimoiy himoya maqsadlarida tuzilishi mumkin bo'lgan fuqarolik huquqiy shartnomalarni shartli ravishda ashyolarni topshirishga qaratilgan shartnomalar, xizmat ko'rsatishga qaratilgan hamda ish bajarishga qaratilgan shartnomalarga bo'lish mumkin va bunda shartnomaviy munosabat predmeti, ijtimoiy himoyani amalga oshirilishi shakl hamda usullari nazarda tutiladi.

Fuqarolik huquqiy shartnomalar shuningdek, bevosita ijtimoiy himoyalashga yoki bilvosita imtiyoz yoki engilliklar berishni nazarda tutuvchi shartnomalarga bo'linishi mumkin.

Shuningdek, bunday fuqarolik huquqiy shartnomalar yuridik shaxslar o'rtasida va jismoniy shaxslar o'rtasida tuziladigan shartnomalarga ham bo'linishi mumkin.

Bu xaqda fikr yuritib A.A. Klishin yozadiki: “Fuqarolar ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoit yaratish, kafolatlarni ta’minlash xaqida so’z borar ekan, bunda xususiy huquqiy prinsiplarga asoslanuvchi munosabatlar va shartnomaviy aloqalarda shaxs huquqlari muxofazasi ham muhim rol o’ynashi ta’kidlanmog’i lozim. Bunda shartnomalarning qaysi shakli va turidan foydalanilgani unchalik ahamiyatga ega emas”.<sup>1</sup>

M.A. Usmonova ham yuqoridagi fikrga qo’shilgani holda quyidagilarni qo’shimcha qiladi: “O’zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligida, eng avvalo, Fuqarolik kodeksida shartnomaviy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan shunday normalar va qoidalar mavjudki, bu normalarni qo’llash chog’ida nochor aholi qatlamlarini ijtimoiy himoyalash, moddiy qo’llab-quvvatlash tadbirlarini amalga oshirish mumkin bo’ladi”.<sup>2</sup>

Yuqoridagi mualliflarning mulohazalariga qo’shilgan holda shartnomalar nochor aholi qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish va nodavlat ijtimoiy himoyasini yanada rivojlantirishda sinalgan hamda samarali huquqiy mexanizm bo’lib xizmat qiladi. Shu sababli fuqarolik huquqiy shartnomalardan ijtimoiy himoya maqsadlarida foydalanishning ixcham, samarali va ishonchli vositalarini axtarib topish, shunga oid zarur huquqiy mexanizmlarni qonunchilik normalarida mustahkamlab qo’yish dolzarb vazifadir. Chunki, amaliyotning ko’rsatishicha hayriya va homiylik munosabatlari amalga oshirilishi yuzasidan tushunish qiyin bo’lgan murakkab formal tartiblarni belgilab qo’yilganligi, bunday munosabatda qatnashadigan har bir shaxsga (ijtimoiy yordam ko’rsatuvchiga ham, bunday yordamdan foydalanuvchiga ham) shubhali nazar bilan qarash, ular yo’liga sun’iy to’siqlar qo’yilishi mamlakatimizda ijtimoiy himoyani ko’ngildagidek quloch yozishiga to’siq bo’lmoqda, savob talab insonlar ko’ngli sovishiga olib kelmoqda.

Masalan, yuridik shaxs sanaluvchi korxonalar va tashkilotlar o’z mulklarini hayriya yordami yoki homiylik tarzida o’zga shaxslarga berganida bu xaqda

---

<sup>1</sup> Клишин А.А., Экономико-правовые предпосылки усиления социальной защиты граждан. Монография. М., 1999 г., стр. 25.

<sup>2</sup> Усмонова М.А. Ўзбекистонда ижтимоий ҳимоя: фуқаролик ҳуқуқий жиҳатлари. Т., ТДЮИ, 2005 й., -Б.152.

ko‘plab hujjatlarni rasmiylashtirishga, davlat soliq inspeksiyasi va boshqa bir qator davlat idoralariga bu xaqda hisobotlar, tushuntirishlar taqdim etishi lozim bo‘ladi. Albatta, bunday sharoitda har kim ham hayrli ishga jazm etavermaydi. Buning ustiga hayriya yordami ko‘rsatgan ham o‘zidan ketayotgan mulkdan, yordam oluvchi shaxs ham olgan yordamidan (sadaqadan) soliq to‘lashi lozim bo‘ladigan norma va qoidalar davlatimizning oqilona sotsial siyosatiga ham, kuchli ijtimoiy himoya bosh shiorlaridan bo‘lgan davlatimiz obro‘-e‘tiboriga ham jiddiy putur etkazadi.

Ijtimoiy sohaga e‘tiborning ko‘lamini tasavvur qilish uchun, loaqal, shu yil, ya’ni 2017 yilning o‘zida bu borada qabul qilingan qonunosti hujjatlarning muhim-muhimlarini sanash kerak. Ko‘rib o‘tilganidek, Harakatlar strategiyasida<sup>1</sup> ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun aynan nimalarni amalga oshirish aniq-tiniq qilib belgilab berilgan.

Mustaqillik davrida ijtimoiy himoya siyosatini amalga oshirishda davlat va hokimiyat tashkilotlari, keng jamoatchilik hamda fuqarolarning hamkorligi tubdan o‘zgardi. O‘zbek xalqining ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘muriy birligi bo‘lmish mahalla orqali ko‘p bolali, kam ta‘minlangan oilalarga<sup>2</sup>, nogiron va boquvchisini yo‘qotganlarga<sup>3</sup> maqsadli madad ko‘rsatish tizimi shakllantirildi.

O‘zbekistonning Davlat byudjetida maxsus “Ijtimoiy himoya” bandi belgilangan bo‘lib, bu dunyo tajribasida kamdan-kam uchraydi. Zero, o‘zbekona milliy qadriyatlarni bu kabi insonparvarliksiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Byudjetda ko‘zda tutilgan xarajatlardan tashqari, hukumatimiz tomonidan har yili yolg‘iz keksalar, pensioner va nogironlarni aniq ijtimoiy muhofaza qilish, ularga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni yanada kuchaytirishga qaratilgan maxsus qarorlar qabul qilinmoqda.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги.-Тошкент.2017 й.7 феврал ПФ – 4947-сон.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республика Президентининг “Аҳоли бандлигини таъминлаш бўйича олиб борилаётган ишлар натижадорлиги ва самарадорлигини оширишда маҳаллий ижро ҳокимияти ва иқтисодий комплексни ҳудудий органлари раҳбарларини шахсий масъулиятини ошириш чора тадбирлари тўғрисида” Қарори.2017 йил 6 май.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентини “Ўзбекистон Республикаси аҳолисига 2017 - 2021 йилларда ихтисослаштирилган тиббий ёрдам кўрсатишни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. 2017 йил 20 июнь

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ногиронларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармойиши.2017 йил 1 август.

Respublikadagi hokimiyat idoralari, mahalla, xotin-qizlar nodavlat notijorat, hamda yoshlar tashkilotlari, keng jamoatchilik, xususan, siyosiy partiyalar ijtimoiy himoya siyosatini amalga oshirish jarayonida o'zlarining amaliy takliflari, fikr-mulohazalari, tashabbuslari bilan faol qatnashishlari talab etiladi.

Aholini ijtimoiy himoyalash nafaqat davlat va nodavlat tashkilotlarining, balki har bir kishining insoniy burchi va vazifasidir. Shuning uchun ham bu kabi olijanob ishni amalga oshirishda barchamiz bir bo'lib, hamkorlikda faoliyat yuritishimiz lozim. O'zbekistonda yangi jamiyat qurish, demokratik huquqiy davlat tuzish, iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tkazish maqsadida o'zimizga xos va mos yo'l tanlangani bejiz emas. Bunda barcha harakatlarning dasturilamali bo'lmish besh tamoyildan biri – aholining ijtimoiy himoyasini ta'min etgan holda bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish alohida qayd etilgan.

Nodavlat ijtimoiy himoyasining huquqiy asoslarini mustahkamlash ishlari amalga oshirilar ekan, aynan Prezidentimizning yuqoridagi ko'rsatmalari asosida eng avvalo fuqarolik qonunchiligi, uning shartnomalarga oid norma va qoidalari takomillashtirilishi zarur.

## **II.2. Ijtimoiy himoyaga oid fuqarolik huquqiy shartnomalar, ularning mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari**

Mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan barcha islohotlarmizdan ko'zlangan bosh maqsad – yurtimiz qudrati va obro'sini oshirish, jamiyatimizda moddiy-ma'naviy yuksalishini ta'minlash, fuqarolarimiz turmushini yanada ko'rkam qilish, ularning talab va extiyojlarini to'laroq qondirishga qaratilganligi shubxasizdir.

Jamiyat taraqqiyotiga to'la monand tarzda nochor va muxtoj tabaqalar ahvoli xaqida g'amxo'rlik qilish, ularning holidan xabar olish, moddiy hamda ijtimoiy yordamlar ko'rsatish jahon miqyosida dunyoviy davlatlar tomonidan amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlardan bo'lib, ular inson huquqlariga oid xalqaro huquqiy hujjatlar hamda standartlarga mos ravishda bo'lishi talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi ham dunyoviyssivilizatsiyalashgan davlat sifatida ushbu xalqaro talab va andozalarga to‘la mos keluvchi ijtimoiy siyosat yuritib kelmoqda hamda muhtoj aholi qatlamlarini kuchli ijtimoiy himoyalash ushbu siyosatning muhim tarkibiy qismini tashkil qiladi. Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida kuchli ijtimoiy himoya siyosati yuritilishi lozimligi, ijtimoiy jihatdan zaif bo‘lgan aholi guruxlarini himoya ostiga olish ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va barqaror taraqqiyotning ob’ektiv sharti ekanligi mamlakatimizda yuzaga kelgan bir qator omillar bilan belgilanadi.

D.Q. Axmedovning qayd etishicha: “O‘zbekistonda oila a‘zolari o‘rtacha sonining 5,5 kishidan iborat ekanligi, aholi umumiy sonining 43,1 foizi 15 yoshgacha bo‘lgan o‘smirlar, nogironlar bilan qo‘shib hisoblaganda 50 foizdan ko‘prog‘i mehnatga yaroqsiz shaxslardan iboratligi, 63 foiz aholi qishloqlarda istiqomat qilishi, demografik vaziyatning murakkabligi kabi omillar islohotlarning evolyusion, bosqichma-bosqich kechadigan shaklini qo‘llash lozimligini taqozo qildi”.<sup>1</sup>

Muallifning ushbu fikriga qo‘shilgan holda yana shuni qo‘shimcha qilish lozimki, inqilobiy sakrashlarsiz, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik ta‘minlangan holda rivojlanish usuli bozor munosabatlariga o‘tishning “O‘zbek modeli” muhim prinsip hamda jihatni tashkil qiladi.

Ijtimoiy himoya jamiyat kundalik hayoti va taraqqiyotining eng muhim tarkibiy qismi hamda asosiy shartidan iborat bo‘lar ekan uni tobora takomillashtirish, ijtimoiy hayotimizda yuz berayotgan yangilanish-o‘zgartirishlarga moslashtirish, yangicha sharoitlarga mos keluvchi, zamon talablariga javob beruvchi yangi va yuksak samarali ijtimoiy himoya shakl hamda usullarini axtarib topib, turmushimizga joriy qilish – davlat va jamiyat oldida turgan dolzarb vazifa sanaladi.

Ushbu vazifa mustaqillikka erishgan dastlabki kundan boshlab davlat va jamiyat e‘tiborida bo‘lib, o‘z dolzarbligini saqlab turibdi, chunki o‘tish davri

---

<sup>1</sup> Ахмедов Д.Қ. Бозор муносабатлари шaroitida davlat ижтимоий ҳимоя сиёсатининг ҳуқуқий жиҳатлари. Т., ТДҮИ, 2006 й.,-Б. 9.

ob'ektiv ravishda aholi muxtoj qatlamlari uchun qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi va ularni bartaraf qilish choralarini ko'rish, muxtojlariga ko'mak ko'rsatish zarurati saqlanib qoladi.

Shu munosabat bilan Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlagan ediki: “Bugungi imkoniyatdan foydalanib, yurtimiz ravnaqi yo‘lidagi fidokorona xizmatlari uchun muxtaram nuroniylarimizga, qadrli mehnat faxriylariga o‘zimning yuksak hurmat-ehtiromim va samimiy tilaklarimni bildirishga, ularning barchasiga uzok umr, mustahkam sog‘lik,baxtu saodat va farovonlik tilashga ruxsat bergaysizlar.

Shu borada bir fikrga alohida urg‘u berib ta'kidlamoqchiman: yoshi ulug‘ insonlar, katta avlod vakillariga e'tibor va amaliy g'amxo'rlikni kuchaytirish,ularning pensiyalarini oshirish, tibbiy xizmat va ijtimoiy-maishiy ta'minotini yaxshilash bundan buyon ham Prezident uchun, Hukumatimiz va barcha hokimliklar uchun eng muhim ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Shu maqsadda pensionerlar, yolg‘iz qariya va nogironlarga davlat ko‘magini kuchaytirish bo‘yicha ayni paytda keng qamrovli chora-tadbirlar komileksi ishlab chiqildi va ular so‘zsiz amalga oshiriladi.«Nuroniy» va «Mahalla» jamgarmalarining xodimlar shtatlarini ko‘paytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, jamiyatimiz hayotida ularning o‘rni va mavqeini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha zarur choralar ko‘riladi<sup>1</sup>.

Eng kam ish xaqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalarning qayta-qayta, eng muhimi – narx-navoning erkinligi va inflyasiyadan muxofaza qiladigan tarzda oshirilishi, sobiq sho‘rolar xududida misli ko‘rilmagan voqea – aholi jamg‘armalarining keng miqyosda indeksatsiya qilinishi, aholini ish bilan ta'minlash, pensiya ta'minoti bo‘yicha zamonaviy qonunchilikning amalga oshirilishi o‘tish davrining muammo va qiyinchiliklarini engillatishga, ko‘pchilikning yangi bozor sharoitlariga moslashishiga imkon berdi.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатининг биргаликда барпо этамиз,Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимиغا киришиш тантанали маросимиغا бағишланган Олий Мажлис палаталарининг хўшма мажлисидаги нутқи. Ш.Мирзиёев –Тошкент.”Ўзбекистон” НМИУ.2016. –Б.12.

Demokratik jamiyatimizning asosini nomativ tizimda har bir fuqaro teng va o‘z huquqlarini amalga oshirishda o‘zgalar huquqlarini poymol qilmasligini davlat kafolatlaydi va fuqaroga majburiyat sifatida yuklaydi.<sup>1</sup>

Ijtimoiy himoya bugungi va ertangi buyuk kelajakni ta’minlashning muhim vositasi bo‘lar ekan, u xaqda o‘ylash, uni muntazam ravishda takomillashtirib borish – jamiyat e’tibori markazida turmog‘i lozimligi tabiiy holdir.

Ijtimoiy himoya tizimini isloh qilinishi to‘g‘risida so‘z ketganda eng avvalo nodavlat ijtimoiy himoyasini keng avj oldirish, uning qonunchilik asoslarini boyitish nazarda tutiladi. So‘nggi yillarda aholini ijtimoiy himoyalashda nodavlat sub’ektlarining ishtiroki va ular tomonidan ana shu maqsadga sarf harajat qilinayotgan moliyaviy hamda moddiy mablag‘lar hajmi tobora salmoqli bo‘lib bormoqda.<sup>2</sup>

Nodavlat ijtimoiy himoyasi aholi ijtimoiy muhofazasida tobora keng ishtirok etib borar ekan, uni amalga oshirishning xukuqiy shakllari, vositalari hamda usullari, tashkiliy tizimlari jamiyat extiyojlariga mos ravishda rivojlantirilishi, ularning huquqiy bazasi vujudga keltirilishi lozim, ushbu vazifalar echimini faqat ilmiy-nazariy tadqiqotlarni avj oldirish orqali topish mumkin bo‘ladi.

Nodavlat ijtimoiy himoyasi amalga oshirilishining eng muhim huquqiy shakli – fuqarolik huquqiy shartnomalar ekanligi yuqorida ko‘rib o‘tildi.

Shartnomalar fuqarolik huquqiy munosabatlar vujudga kelishi hamda amalga oshirilishining eng muhim instrumenti va shakli sifatida fuqarolik huquqi, xo‘jalik (tadbirkorlik) huquqi, qishloq xo‘jalik huquqi kabi huquqshunoslik fan sohalari nazariyotchi olimlar tomonidan uzoq vaqtdan buyon atroflicha tadqiq etib kelinadi va natijada fuqarolik huquqining shartnomalar huquqiy instituti ilmiy jihatdan fanning alohida yo‘nalishi sifatida shakllandi.<sup>3</sup>

Ayni paytda shartnomalarning davlat ijtimoiy himoya siyosati ro‘yobga chiqarilishidagi o‘rni, ijtimoiy himoyani amalga oshirilishida ulardan foydalanish

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-Toshkent: O‘zbekiston, 2017

<sup>2</sup> Жумладан, “ Ижтимоий ҳимоя йили”, яъни 2007 йилда ижтимоий ҳимоя учун сарфланган жами 483 млрд сўм маблағнинг 270 млрд сўмдан кўпроғи нодавлат, грант маблағларидан иборат бўлди.

<sup>3</sup> Рахмонкулов Х.Р. Гражданское законодательство: проблемы и задачи.// “Фуқаролик қонунчилиги: муаммо ва ечимлар” мавзусидаги халқаро илмий амалий конференция материаллари.-Т.: ТДЮИ, 2004.-Б.5-13.

imkoniyatlari, bu sohadagi muammolar va ularni hal etish yo‘llari deyarli e‘tibordan chetda qolayotgan masalalardandir.<sup>1</sup>

Umuman olganda, ijtimoiy himoya maqsadlarida har qanday shartnomalar ahamiyatga ega va ularning funksiyalaridan biri – shartnoma tomonlarini huquqiy muxofaza qilish, shu jumladan moddiy-ijtimoiy jihatdan himoya qilishdan iborat.

Ushbu ma‘noda shartnomalarga tavsif berilar ekan, yurist olimlar uning vazifalari qatoriga quyidagilarni kiritadilar:

– Shartnoma, bu muayyan huquqiy munosabat yuzaga kelganligi, bu munosabat ishtirokchilari bir-birlariga nisbatan huquqlarga ega va ayni paytda mas‘ul ekanliklarini tasdiqlovchi yuridik hujjat;

– Shartnoma, bu – huquqlarni muxofaza qilishning yuridik vositasi bo‘lib, huquqlar xaqida nizo chiqqanida muhim dalil sanaladi;

– Shartnoma, bu – javobgarlik hajmi va mazmunini belgilovchi hujjat;

– Shartnoma, bu – ikki shaxsning muayyan masalalarda bir-birlariga oldindan bergan kafolatidan iborat.

Shartnomalarning bajarilishi taraflar o‘zaro kelishib belgilaydigan majburlov vositalari orqali, bajarilmagani yoki lozim darajada bajarilmagani taqdirda noma‘qul oqibatlar kelib chiqishi tahdidi bilan nazarda tutilgan tashkiliy-iqtisodiy mazmundagi choralar bilan ta‘minlangan bo‘ladi.<sup>2</sup>

Shartnomalar keng ma‘noda har qanday iqtisodiy munosabatlar yuz berishining yuridik usuli sifatida uning ishtirokchilari manfaatlariga ziyon etishining oldini olishga qaratilgan preventiv chora, huquqiy muhofazalash mexanizmidan iborat.<sup>3</sup>

Shartnomalarga yuklatilgan mazkur funktsiya O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlari faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi

---

<sup>1</sup> Ахмедов Д.Қ. Бозор муносабатлари шароитида давлат ижтимоий ҳимоя сиёсатининг ҳуқуқий жиҳатлари. Т., ТДЮИ, 2006 й.,-Б. 67.

<sup>2</sup> Жумладан: Зокиров И.Б . Бозор муносабатлари тизимида фуқаролик ҳуқуқий тадқиқотларининг айрим муаммолари. -: // ж. Давлат ва ҳуқуқ.-2000.. № 2, -Б.14.

<sup>3</sup> Раҳмонқулов Х.Р. Мажбурият ҳуқуқи. Дарслик.- Т.: ТДЮИ, 2005. –Б.306.

to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasida<sup>1</sup> ularning himoya funksiyasi muhim prinsiplardan biri sifatida qayd etib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksida esa shartnoma-huquqqa egalikni isbotlaydigan eng muhim dalil-hujjat sifatida ko'zda tutilgan.

Tor ma'noda shartnomalar bajaradigan ijtimoiy himoyalash funksiyasi mazmuni o'ziga xos bo'lib, o'z ichiga huquqiy himoya sohasidagi umumiy va abstrakt tushunchalarni emas, balki ijtimoiy jihatdan zaif, o'zgalar ko'magiga muxtoj fuqarolarni bevosita yoxud bilvosita moddiy yoki ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan aniq-ravshan choralarni oladi.

Bunday xususiyatga ega shartnomalar yurist olimlar tomonidan batafsil ilmiy-nazariy tahlil etilgan emas va bu sohada e'lon qilingan ishlar masalaning ayrim jihatlarini hamda odatda umumiy tarzda tadqiq etish bilan cheklangan.

Vaholanki, bizning nazarimizda bozor munosabatlariga o'tish, bosqichma-bosqich iqtisodiy islohotlarni amalga oshirilishi sharoitida kuchli ijtimoiy himoya siyosatimizning ustuvor yo'nalishi, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashning eng samarali vositasi hamda fuqarolarimiz huquq va manfaatlarini kafolatlovchi chora-tadbirlar kompleksidan iborat bo'lgani sababli unga ilmiy tadqiqot predmeti sifatida e'tibor kuchaytirilishi lozim. Aholining ijtimoiy zaif va yordamga muxtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalash sohasida maxsus vazifalarni bajara oladigan shartnomalar odatda hayr-ehson, homiylik ko'rsatish, savobga ega bo'lish istagidagi yuridik va jismoniy shaxslarga ana shunday aksiyalarda qatnashish imkonini beradi va bu sohadagi hatti-xarakatlari uchun yuridik zamin bo'lib xizmat qiladi.

D.Q. Axmedovning qayd etishicha: "Aholini ijtimoiy himoya qilishning tashkiliy-iqtisodiy omillaridan oqilona foydalanish, bir tomondan, amaldagi ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va bu tizim samaradorligini oshirish

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 1998 йил, 9-сон, 170-модда.

imkonini beradi. Bozor munosabatlariga o'tish davrida qishloq aholisi turmush darajasi keskin pasayib ketishining oldini olishda muhim rol o'ynaydi".<sup>1</sup>

Ijtimoiy himoya maqsadlari nazarda tutilishi mumkin bo'lgan shartnomalar o'zining predmetiga qarab muayyan ashyo, moddiy ko'rinisdagi boylikni shaxslarga topshirishga qaratilgan shartnomalarga, muayyan hujjatlar ko'rsatish maqsadidagi, ma'lum ishlarni bajarishga yo'naltirilgan shartnomalarga bo'linishi mumkin.

Ijtimoiy himoyaga oid shartnomalar shuningdek, jismoniy shaxslarga (fuqarolarga) yordam ko'rsatishga, davlat yoki nodavlat ijtimoiy muxofaza muassasalariga (masalan, bolalar uylari, rehabilitatsiya markazlari, kasalxonalar va boshqalar) yordam ko'rsatishga qaratilgan shartnomalarga ham bo'linishi mumkin. Jismoniy shaxslar tomonidan jismoniy shaxslarga ijtimoiy yordam ko'rsatilishi formal xususiyatlariga ko'ra yuridik shaxslar tomonidan xizmat ko'rsatishdan farqlanmog'i lozim.

Chunki, insonlar o'rtasida bevosita aloqalar yuz bergan ko'pchilik hollarda ularni formal jihatdan rasmiylashtirish yuz bermaydi va bu narsa Xadislarda zikr etilgan "O'ng qo'ling qilgan exsonni chap qo'ling bilmasin" degan axloqiy qoidaga to'la mos keladi, ijtimoiy ko'mak oluvchi sha'ni, qadr-qimmatini saqlanishiga, yordam ko'rsatuvchini esa o'z oliyhimmat harakatidan pinhona lazzatlanishiga imkon beradi.

Yuridik shaxslarga jismoniy shaxs (fuqaro)lar ijtimoiy yordam ko'rsatilgani hollarda bunday munosabatlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtirish (xadya shartnomasi tuzish, mulkni topshirish-qabul qilib olish dalolatomasi tuzish va boshqalar) talab etiladi. Bunday qilinishiga sabab, buxgalteriya hisobi to'g'risidagi va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq yuridik shaxslar tasarrufidagi moddiy va boshqa barcha nomoddiy boyliklar hujjatlarda o'z aksini topishi, ularning harakatlanishi muntazam qayd etilishi lozim. Bunday talablar ushbu boyliklar bilan tejamkorlik bilan munosabatda

---

<sup>1</sup> Ахмедов Д.Қ. Бозор муносабатлари шароитида давлат ижтимоий ҳимоя сиёсатининг ҳуқуқий жиҳатлари. Монография. Т., ТДЮИ, 2006 й., -Б.67.

bo‘lish, ularni yo‘qotilishi, talon-taroj qilinishining oldini olish maqsadini ko‘zlaydi.

Ayni paytda fuqarolarning aholi ijtimoiy himoyasi tadbirlarida kengroq ishtirok etishini ta‘minlash maqsadida bu sohadagi rasmiyatchiliklarni soddalashtirish, murakkab hujjatlar oborotini kamaytirgan holda muxofaza maqsadlariga javob beradigan sodda va ixcham huquqiy mexanizmlar joriy qilinishi lozim. Bizning nazarimizda kompyuter texnologiyasi sohasida zamonaviy yutuqlarga erishilayotgani ushbu muammoni muvaffaqiyatli hal etish imkonini beradi.

Yuridik shaxslarning muxtoj fuqarolarga ijtimoiy yordam ko‘rsatilishi, ayniqsa mahalla fuqarolar yig‘inlari tomonidan yordam ko‘rsatilishida, shu jumladan yuridik shaxslar (ko‘proq tadbirkorlik sub‘ektlari bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar) tomonidan sotsial yordam muassasalari, hayriya tashkilotlari, turli ijtimoiy fondlarga yordam ko‘rsatilganida o‘zaro munosabatlarni rasmiylashtirishning mavjud tizimi saqlab qolinishi, hatto zamonaviy elektron texnologiyalarni joriy etish yo‘li bilan yanada qat‘iy tartib o‘rnatilishi mumkin. Chunki, huquqni muhofaza qilish organlari hamda sud amaliyotining guvohlik berishicha hayriya yordamlarini, ijtimoiy ta‘minot uchun ajratilgan moliyaviy mablag‘larni turli jinoiy guruxlar, uyushgan shaxslar tomonidan talon-taroj qilinishi hollarini ahyon-ahyonda bo‘lsada kuzatish mumkin.

Masalan, Namangan shaxar Davlatobod tuman ijtimoiy ta‘minot bo‘limi xodimi K. Umurzoqova esa o‘z uchastkasidagi yolg‘iz keksa va yolg‘iz nogironlar oziq-ovqat maxsulotlarini o‘zlashtirib kelgan.<sup>1</sup>

Matbuotda bunday hollar xaqida tez-tez xabar berib turilibdi va bularning barchasi ijtimoiy himoya sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish lozimligi, muhtoj fuqarolar huquqlari buzilishi hollariga samarali to‘siq qo‘yilishini taqozo etmoqda.

---

<sup>1</sup> Қаранг: Халқ сўзи. 2017 йил 18 сентябр.

Salbiy holatlarning mavjudligi ijtimoiy himoyaning nodavlat shakllari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik tizimi ham ushbu holatlar e'tiborga olingani holda takomillashtirish kerakligini taqozo qiladi.

Nodavlat ijtimoiy himoyasining bevosita huquqiy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasining "Homiyluk to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinganligi amalga oshirib kelinayotgan huquqiy islohotlarimizda katta ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik voqea ekanligi hech bir shubxa tug'dirmaydi. Chunki, ushbu qonun mustaqil taraqqiyotimiz davomidagi huquqshunoslik tarixida birinchi marta homiyluk tushunchasiga qonun darajasidagi rasmiy ta'rifni berdi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida xadya va hayr-exson xaqida so'z yuritilgan bo'lsada (FKning 502-511 moddalari), ammo homiyluk xaqida hech bir norma mavjud emas edi. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi<sup>1</sup> va boshqa oilaviy munosabatlarga oid qonun hujjatlarida esa homiyluk ruhiy yoki jismoniy kamchiligi borligi tufayli huquqiy maydonda mustaqil ravishda ishtirok eta olmaydigan, o'ziga berilgan huquqlardan mustaqil ravishda foydalanish imkoniga ega bo'lmagan shaxslar nomidan vakillik qilishi, ularga tegishli huquqlar va majburiyatlarni amalga oshirish sifatida tor hamda maxsus ma'noda talqin etilgan. Hatto, mustaqillikka erishilganidan avval va O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyingi yillarda nashr etilgan yuridik ensiklopediyalar, ma'lumotnomalar hamda lug'atlarda ham ushbu tushuncha mazmuni yuqoridagidek tor (oila qonunchiligi nuqtai nazaridan) ta'riflangan.

Vaholanki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat, uning markaziy yo'nalishini tashkil qiluvchi kuchli ijtimoiy himoya siyosati nodavlat ijtimoiy himoyasini keng avj oldirish nuqtai nazaridan bu tushunchaga avvalgisidan tubdan farq qiluvchi benihoyat keng hamda teran ma'no berdi.

Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A. Karimov 2006 yilni "Homiylar va shifokorlar yili" deya e'lon qilar ekan, homiyluk xaqida so'z yuritib aytgan ediki: "Homiyluk faqat o'z boyligidan bir qismini hayr-exson uchun ajratish emas,

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон республикасининг Оила кодекси. Т., "Адолат", 2013 йил.

bu zakot ham emas, sadaqa berish ham emas. shunga e'tiboringizni yana va yana bir bor qaratmoqchiman.

Homiylikni biz inson qalbi va yuragidagi eng ezgu tuyg'ularning amaliy ifodasi deb bilamiz. Ya'ni, homiylik deganda, yon-atrofdagi beva-bechoralarga, etim-esirlarga, muhtoj kishilarga ko'mak va yordam berishga, odamlarning dardiga hamdard bo'lishga, qadrdon qishlog'i yoki shahrini obod qilishga intiladigan, bir so'z bilan aytganda, savob ish qilib yashaydigan insonlarni o'zimizga tasavvur qilamiz".<sup>1</sup>

Homiylikning yuqoridagi ta'rifining uning ijtimoiy-siyosiy mohiyatini, asl ma'no-mazmunini o'zida aks etdiradi.

Homiylik tushunchasiga fuqarolik huquqiy nuqtai nazardan ta'rif berishga yuridik fanlar doktori M.A. Usmonova harakat qilgan bo'lib, unga ko'ra: "Homiylik, bu – nochor fuqarolar, moddiy yordamga muxtoj aholi qatlamlari, ijtimoiy zaif aholi tabaqasi ijtimoiy himoyasi bilan shug'ullanuvchi davlat va nodavlat muassasalari, hayriya fondlari, shular bilan bog'liq ommaviy tadbirlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan, hadyalar qilish, hayr-exson aksiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq faoliyatdir".<sup>2</sup>

Yuqorida eslatilgan "Homiylik to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida "Homiylik (homiylik faoliyati)" tushunchasiga ta'rif berilgan. Bu ta'rifga ko'ra: "Homiylik (homiylik faoliyati)" – yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik maqsadlarida boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga mol-mulkni, shu jumladan pul mablag'larini qaytarmaslik sharti bilan yoki imtiyozli shartlarda berishda, ular uchun ishlar bajarishda, ularga xizmatlar ko'rsatish va ularni boshqacha shaklda qo'llab quvvatlashda ifodalanadigan ixtiyoriy beg'araz yordami (faoliyati)dir".

Qonun normasidagi ushbu ta'rif masalaning moddiy tomonlarini qamrab olsada, ammo bizning nazarimizda uning mohiyatini haddan tashqari toraytirib yuboradi. Jamiyatda homiylik faoliyati tashkil etilar, muvofiqlashtirilgan hamda

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари – энг олий қадрият. Т., Ўзбекистон, 2005 йил, -Б.35.

<sup>2</sup> Усмонова М.А. Ўзбекистонда ижтимоий ҳимоя: фуқаролик ҳуқуқий жиҳатлари. Т., ТДЮИ, 2005 йил, - Б.175.

rag‘batlantirilar ekan, “Homiylik to‘g‘risida”gi Qonunda ta’kidlanganidek (4-modda) u quyidagi maqsadlarni amalga oshirilishini nazarda tutadi:

– Fuqarolarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish, shu jumladan aholining ijtimoiy jihatdan muxofaza qilinmagan va kam ta’minlangan toifalarining moddiy ahvolini yaxshilash, o‘z jismoniy yoki intellektual xususiyatlari, boshqa holatlar sababli mustaqil ravishda o‘z huquqlarini amalga oshira olmaydigan hamda qonuniy manfaatlarini himoya qila olmaydigan ishsizlarni, nogironlarni va boshqa shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish;

– Xalqlar o‘rtasida tinchlik, do‘stlik va totuvlikni mustahkamlashga ko‘maklashish;

– Oilaning jamiyatdagi nufuzi va rolini mustahkamlashga ko‘maklashish;

– Onalik, bolalik va otalikni himoyalashga ko‘maklashish;

– Ta’lim, fan, madaniyat, san’at, ma’rifat sohalaridagi faoliyatga, shuningdek, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga ko‘maklashish, fuqarolarga ma’naviy ruxiy yordam ko‘rsatish;

– Jismoniy tarbiya va ommaviy sport sohasidagi faoliyatga ko‘maklashish;

– Aholini tabiiy ofatlar, ekologiya, sanoat halokatlari yoki boshqa halokatlar oqibatlarini bartaraf etishga, baxtsiz hodisalarning oldini olishga tayyorlash;

– Terrorchilik harakatlari, tabiiy ofatlar, ekologiya, sanoat halokatlari yoki boshqa halokatlar natijasida jabrlanganlarga yordam ko‘rsatish;

– Atrof, tabiiy muhitni muhofaza qilish;

– Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish.

Qonun hujjatlariga muvofiq homiylik boshqa maqsadlarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Mazkur qonunda moddiy-moliyaviy yordam ko‘rsatilsada, o‘z mohiyatiga ko‘ra homiylik hisoblanmaydigan hatti-xarakatlar belgilab qo‘yilgan. Bunday harakatlar jumlasiga:

a) Tijorat tashkilotlariga;

b) Siyosiy partiyalarga;

c) Ommaviy harakatlarga va boshqa siyosiy tuzilmalarga moddiy-moliyaviy yordam ko'rsatish;

d) Saylov va referendum o'tkazilishi yuzasidan saylov kompaniyasini qo'llab-quvvatlash maqsadidagi moliyaviy tadbirlar;

e) Qonunga zid keluvchi har qanday faoliyat yoki tadbirlarni qo'llab-quvvatlash maqsadidagi moddiy, moliyaviy yoki boshqa shakllaridagi yordamlar kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Homiyluk to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi nodavlat ijtimoiy himoyasi huquqiy asoslarini shakllantirilishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan voqeadir. Unda homiyluk va bu faoliyatni amalga oshirilishining yuridik texnologiyasi nazarda tutilgan hamda u homiylukning Qonunga asoslangan holda rivojlantirilishiga tegishli hissa bo'lib qo'shiladi.

Ayni paytda nodavlat ijtimoiy himoyasi infratuzilmasida ushbu qonun bir elementni tashkil etadi xolos va bu infratuzilma nodavlat ijtimoiy himoyasining har bir yo'nalishiga oid qonunlar qabul qilinishi kerak. Bunday qonunlar qatoriga o'ndan ortiq qonunlar bloki kiritilishi lozim. Bizning nazarimizda ushbu blok quyidagi qonunlardan iborat bo'lishi kerak:

1) "O'zbekiston Respublikasida davlat ijtimoiy siyosati va uning prinsiplari to'g'risida"gi;

2) "Fuqarolarni ijtimoiy himoyalash to'g'risida"gi;

3) "Aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam to'g'risida"gi;

4) "Nodavlat pensiya jamg'armalari to'g'risida"gi;

5) "Hayriya tashkilotlari to'g'risida"gi;

6) "O'zbekistonda metsenatlik to'g'risida"gi;

7) "Minimal iste'mol savati va daromadlarni indeksatsiyalash to'g'risida"gi;

8) "Tibbiy sug'urta to'g'risida"gi;

9) "Nafaqalar to'g'risida"gi;

10) "Davlat va xizmatchilarning ijtimoiy himoyalash to'g'risida"gi;

11) “Korxonalarining xodimlari va ularning oila a’zolari ijtimoiy himoyasi to’g’risida”gi Qonunlar.

Yuqoridagi qonunlarni huquqiy islohotlar jarayonida taraqqiyotimiz sur’atlari, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini yuksalishi hamda bozor munosabatlarning chuqurlashib borishiga mutanosib ravishda bosqichma-bosqich qabul qilinishi ob’ektiv zaruratdir. Chunki, ushbu kompleksga kiruvchi qonunlar qabul qilinmasdan turib zamonaviy talab darajasidagi ijtimoiy himoyalash tizimini, uning zarur infratuzilmasini shakllantirish mumkin emas, demak ularsiz samarali ijtimoiy himoya xaqida so’z yuritish unchalik o’rinli emas. Shunga mos ravishdagi mustahkam huquqiy baza ham aynan ana shu qonunlardan tashkil topmog’i lozim.

Bozor munosabatlari shakllanib bo’lgan va mukammal ijtimoiy himoya tizimi qaror topgan mamlakatlar qonunchilik tizimiga murojaat qiladigan bo’lsak, ularda aholi ijtimoiy himoyasining har bir bo’g’iniga, har bir tarmog’iga taalluqli qonunlar qabul qilinganligini kuzatish mumkin.

Masalan, ushbu masalaga bag’ishlangan qonunlar Shvetsiyada o’ndan ortiq, AQSHda shtatlarning qonunlarini hisobga olganda bir necha yuzta, Yaponiyada 7 ta va hokazo.

Hatto, MDH bo’yicha strategik hamkorimiz bo’lgan Rossiya Federatsiyasida ham 10 dan ortiq bevosita ijtimoiy himoyaga bag’ishlangan qonunlar mavjudligini ko’rish mumkin.<sup>1</sup>

Nodavlat ijtimoiy himoyasining eng muhim huquqiy asoslari Fuqarolik kodeksi hamda boshqa fuqarolik huquqiga oid qonun hujjatlari bilan belgilanganligi barchaga ma’lumdir.

Bu yildan, ya’ni 2017 yildan e’tiboran mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimining huquqiy asoslari tubdan yangilandi. Endi bir mulohaza yuritsak bo’ladi: ijtimoiy himoya iborasini, umuman olganda, saxovat egalarining muhtojlarga qayishuvi deb tushunish mumkin.

---

<sup>1</sup> Masalan, 1995 йил 24 ноябрдаги “Россия Федерациясида ногиронларни ижтимоий химоялаш тўғрисида”ги, 2001 йил 30 ноябрдаги “Россия Федерациясида давлат пенсия таъминоти тўғрисида”ги, 2001 йил 5 декабрдаги “Россия Федерациясида мажбурий пенсия суғуртаси тўғрисида”ги ва бошқа федерал қонунлар.

Bu qat'iyat - umuminsoniy qadriyatlardan biri. Bu qat'iyat - muqaddas islom dinining ham o'zak masalalaridan biri hisoblanadi. Bu qat'iyat - demokratiyaning ham asosiy talablariga to'la javob beradi. Bu qat'iyat - o'zbek milliy mentalitetining ham mag'zi-mag'ziga singib ketgan. Siyosatdagi barqarorlik va izchillik har qanday davlatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

## XULOSA

Bozor munosabatlari shakllanib kelayotgan sharoitda ijtimoiy yo‘naltirilgan O‘zbekiston Respublikasida aholi muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoyalash faoliyati va samarali ijtimoiy siyosat yuritish masalalari barqaror taraqqiyotimizni ta‘minlash, sotsial davlatga xos xususiyatlarni yuzaga keltirishdagi eng katta miqyosli vazifa sanaladi.

Mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj toifalarga kam ta‘minlanganlar, ko‘p bolali onalar, nogironlar, yolg‘iz qariyalar va boshqalar kiradi. Har qanday tuzum va jamiyatda aholining bunday toifalari u yoki bu darajada uchraydi. Adolatli jamiyat hamisha ularni himoya qilishni o‘z zimmasiga oladi. Shuning uchun ham O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishganidan keyin kuchli ijtimoiy siyosat yuritdi. Ijtimoiy sohaga muhim e‘tibor hozirgi paytda ham davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev o‘z nutqida:-biz amalga oshirayotgan iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o‘zgarishlarning samarasi, birinchi navbatda, aholining moddiy ahvoli va farovonligini, uning hayot darajasi va sifatini oshirishga qay darajada ta‘sir ko‘rsatayotgani bilan o‘lchanadi.

Shu maqsadda ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdorini bosqichma-bosqich oshirib borish bo‘yicha biz aniq chora-tadbirlarni rejalashtirganmiz va ular albatta amalga oshiriladi<sup>1</sup>-deya ta‘ktidladab o‘tdi.

Chunki bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan boshqasiga, ayniqsa, unga mohiyatan tamoman zid bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy tuzumga o‘tish hamisha murakkab kechadi. Bu aholining muayyan qismi hayotida keskin tarzda aks etadi. Bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o‘tayotganda, xususan, eski ishlab chiqarish tizimi, mavjud iqtisodiy integratsiya tabiiy ravishda izdan chiqadi, ularning barini yangidan shakllantirishga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, mulkka egalik qilishning shakli

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатининг биргаликда барпо этамиз, Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимидаги киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг хўшма мажлисидаги нутқи. Ш.Мирзиёев –Тошкент.”Ўзбекистон” НМИУ.2016. –Б.15-16..

o‘zgaradi, davlat korxonalari, hatto, ekin erlari egalari o‘zgaradi, ishchi kuchi ham bevosita bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosida qayta taqsimlanadi. Demak, ijtimoiy himoyaga muxtojlar safining o‘zgarib, ya’ni kamayib-ko‘payib turishi ham tabiiy holdir.

Shuning uchun bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida aholining himoyaga muhtoj qismini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning kafolatli tizimi yaratilmas ekan, bu og‘ir ijtimoiy mushkulotlarga olib kelishi mumkin. Mustaqil O‘zbekistonda avval-boshdan bu borada oqilona yo‘l tutildi.

O‘zbekiston xalqining o‘ziga xos xususiyatlari hamda ilg‘or jahon tajribalarini mujassamlashtirgan bu taraqqiyot modeli negizida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish maqsadi ham yotadi.

Inson va uning huquqlari tobora ko‘proq birinchi marraga chiqa borar ekan, muxtoj aholi qatlamlarini davlat va jamiyat tomonidan ijtimoiy-moddiy qo‘llab-quvvatlash ham shunga monand ravishda kengaya boradi. Bu jarayonda nodavlat tashkilotlari, fuqarolar ishtiroki va hissasi ham muntazam ortib boraveradi.

Bularning barisi fuqarolik jamiyati tomon taraqqiy topish yo‘limizdagi muqarrar hamda ob’ektiv voqeilikdir va shunday bo‘lishi tabiiy. Ana shunday kuchayib borayotgan gumanizatsiyashuv jarayonida amalga oshirilayotgan ishlarimizning huquqiy jihatdan asoslash, barcha harakatlarimizning qonuniy negizlarini eng yuksak zamonaviy talablarga ko‘ra barpo qilish lozimligi ham fuqarolik jamiyati barpo etishning zaruriy shartlaridan sanaladi.

Jamiyatning huquqiy asoslarini yanada isloh qilish, ijtimoiy himoyaga oid qonunchilik tizimini jiddiy ravishda yangilash lozimligi ana shunday e’tibor qaratishni talab qiladigan masalalardan ekanligi ochiq-oydindir.

Kuchli ijtimoiy himoya siyosati amalga oshirilishi tufayli aholini muhofaza qilishning yangi shakllari hayotimizga tobora ko‘proq kirib kelmoqda. Nodavlat ijtimoiy himoyasi – xalqimizning tarixiy va milliy an’analariga asoslanuvchi ana shunday yangi shakllardandir.

Ma’lumki, nodavlat ijtimoiy himoyasi xususiy huquqiy tamoyillarga tayanadi va shu tufayli uning asosida fuqarolik huquqiy shartnomalar yotadi.

Ushbu bitiruv malaka ishini yozish jarayonida davlat ijtimoiy himoyasi bilan bir qatorda nodavlat ijtimoiy himoyasi ham zamon talablaridan kelib chiquvchi dolzarb ekanligini asoslashga, uni rivojlantirish hamda takomillashtirish yo'llari xaqida mulohazalar bildirishga harakat qilindi va quyidagi xulosalarga kelindi:

– Birinchidan, mamlakatimizda keng miqyosli ijtimoiy himoyalash siyosati olib borilayotganiga va unda nodavlat ijtimoiy himoyasining salmog'i tobora ortib borayotganligiga qaramasdan nodavlat ijtimoiy himoyasining fuqarolik huquqiy jihatlari etarli darajada ilmiy tadqiq etilayotgani yo'q va bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar uning muammolarini to'la hal etish, rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, mavjud tashkiliy va huquqiy tizimlarini takomillashtirish uchun etarli emas. Shu tufayli bu yo'nalishdagi fundamental izlanishlar ijtimoiy himoyaga oid davlat va nodavlat organlari, homiylik tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari Amaliy ish faoliyatini, tahliliy-statistik axborotlarni chuqur o'rganish asosida izchil davom etdirilishi lozim;

– Ikkinchidan, nodavlat ijtimoiy himoyasini amalga oshirish chog'ida ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlashning kuchli vositasi sifatida fuqarolik qonunchiligi imkoniyatlari keng ishga solinishi kerak. Bunda birinchi navbatda shartnomalarni tuzish va bajarish sohasidagi prinsiplarga rioya etilishi ta'minlanmog'i lozim. Nodavlat ijtimoiy himoyasi maqsad-mohiyatiga zid keluvchi, uning obro'siga putur etkazuvchi mahalliy davlat hokimiyati organlari tazyiqi ostida homiylik qilishga majburlash, tadbirkorlik sub'ektlarini majburiy tarzda ana shu faoliyatga jalb etish amaliyotidan voz kechilishi va bu masalada ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik tarbiyasini avj oldirish yo'li bilan yaxshi natijalarga erishish mumkinligini hisobga olinishi kerak;

– Uchinchidan, homiylik, hayriya hamda ijtimoiy himoyaga bag'ishlangan boshqa bitim va shartnomalarni rasmiylashtirish huquqi mahalla fuqarolar yig'iniga berilishi hamda bunday shartnomalarni soddalashtirilgan tartibda ular tomonidan ramiylashtirilishiga ruxsat berilmog'i kerak;

– To'rtinchidan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakolatlari hamda aholi muhtoj tabaqalari ijtimoiy himoyasidagi ishtiroki kengaytirilgani

holda, ular faoliyatining shaffofligi ta'min etilishi, demokratik qoidalar kuchaytirilishi, mahalla fuqarolar yig'inlari mansabdor shaxslari kundalik faoliyati ustidan samarali monitoring o'rnatilishi kerak. Amaldagi qonun hujjatlariga esa, mansab vakolatini suiste'mol qilishga imkon bermaydigan tashkiliy va huquqiy mexanizmlarni nazarda tutuvchi zarur normalar kiritilmog'i joiz;

– Beshinchidan, Fuqarolik kodeksining bevosita ijtimoiy himoya maqsadlarida foydalanish mumkin bo'lgan shartnomalari, xususan umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (uning bir qismi)ni, kvartirani topshirish to'g'risidagi, tekin foydalanish, xadya, renta kabilar tuzilishi chog'ida mulk egasi bo'lgan ijtimoiy himoyaga muxtoj shaxslar huquq va manfaatlari, hatto ularning salomatligiga hamda hayoti turli jinoiy tajovuzlardan ishonchli hamda kafolatlangan holda himoya qilinmog'i zarur.

Sud amaliyotining ko'rsatishicha turar-joy (kvartira) yoki boshqa qimmatbaho mulk egasi bo'lgan ijtimoiy himoyasiz, nochor, notavon, jismoniy yoki ruhiy ojizligi tufayli o'zini o'zi muhofaza eta olmaydigan fuqarolarning turli firibgar, jinoiy elementlar tomonidan tajovuzga uchrayotganlari, ular ayrim hollarda hatto mol-mulkka noqonuniy egalik qilish maqsadida jismonan yo'q qilib yuborilayotganlari hodisalari kuzatilmoqda.

Bunday hollarga butunlay barham berishning eng muhim yo'li – ojizu-notavonlarga davlat va jamoat e'tiborini kuchaytirish, bunda mahallaning rolini oshirish, bunda mahallaning rolini oshirish, bunday shaxslar aniq hisobga olinishi va jamoatchilik kuzatuvi ostida bo'lishi lozim. Yoshi, salomatligi ahvoliga ko'ra jismoniy yoki ruhiy ojiz fuqarolar taqdiri uchun homiylik va vasiylik organlari, mahalla fuqarolar yig'inlari mas'uliyatini, ularning mansabdor shaxslari javobgarligi oshirilmog'i lozim.

Fuqarolik huquqiy shartnomalardan foydalangan holda ojiz-bechoralar huquqlari poymol etilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida amaldagi qonunchilikka kerakli o'zgartirish xaqida qo'shimchalar kiritilmog'i lozim.

Bunda, birinchidan, ana shunday shaxslar bilan ular mol-mulki ishga solinib ijtimoiy himoyalashga qaratilgan shartnomalar faqat mahalla, qo'ni-qo'shnilar va

boshqa jamoatchilik vakillari guvohligida tuzilishi, keyinchalik ham bu shartnomalar ijrosi jamoatchilik ko‘z ostida bo‘lishi kerak;

Ikkinchidan esa, Jinoyat kodeksiga nogiron va notavon, ijtimoiy himoyasiz shaxslar huquqlarini buzgan holda ular mol-mulkini har qanday shaklda, shu jumladan firibgarlik yo‘li bilan talon-taroj qilish javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat sifatida nazarda tutilishi hamda bunday jinoyatga qo‘l urgan shaxslar qat’iy jazolanishiga erishmoq lozim.

Xullas, bizning nazarimizda nodavlat ijtimoiy himoyasini amalga oshirilishi fuqarolik huquqi imkoniyatlaridan, shartnomalardan yanada keng va to‘liq foydalanish, uning imkoniyatlari ijtimoiy zaif aholi manfaatlariga yo‘naltirilishi lozim. Shu yo‘l bilan ijtimoiy himoya maqsadlarining amalga oshishiga, odamlarimiz turmush ahvoli yaxshilanishiga, mamlakatimiz rivojiga erishgan bo‘lamiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### 1.Rahbariy adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., «O‘zbekiston». 2017.76 b.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2015-yil 26-noyabr kuni xalq deputatlari Namangan viloyati kengashining navbatdan taqari sessiyasida so‘zlagan nutqi. -T:,”O‘zbekiston” 26-noyabr 2015-yil.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2015-yil 5-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilinganligining 23-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. - T:,”O‘zbekiston” 5-dekabr 2015-yil.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T:,”O‘zbekiston”.2016. – 56 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib- intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.- T:,”O‘zbekiston”.2017. – 104 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va halq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7-dekabr. /Sh.M.Mirziyoev.- Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. -48 b.
- 6.Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU 2016. 56 b.
- 7.Mirziyoev Sh.M. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017 yil 19 sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi.

## 2. Me'yoriy huquqiy manbalar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2017.76 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. (2016 yil 1 iyulgacha bo'lgan o'zgarish va qo'shimchalar bilan). To'plam.T.: Adolat nashriyoti. 432 b.
3. O'zbekiston Respublikasining Er kodeksi. (2016 yil 1 iyulgacha bo'lgan o'zgarish va qo'shimchalar bilan). To'plam. T.: Adolat nashriyoti. 323 b.
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: Adolat nashriyoti. 2012.
5. O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida»gi Qonuni. O'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. T.: «Adolat». 1993 yil 7 may.
6. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta to'g'risida»gi Qonuni. 1993, - T.:»O'zbekiston»
7. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonuni, - T.:»O'zbekiston» 2002.
8. O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risidagi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 yil, №9, 170-modda.
9. O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi Qonuni. -T.:»O'zbekiston» 1993 yil.
10. O'zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida”gi Qonuni. -T.:»O'zbekiston» 1998 yil.
11. O'zbekiston Respublikasining “Nogironlarni ijtimoiy himoyalash to'g'risida”gi Qonuni. -T.:»O'zbekiston» 1992 yil.
12. O'zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida”gi Qonuni. -T.:»O'zbekiston» 1999 yil.
13. O'zbekiston Respublikasining “Homiylilik to'g'risida”gi Qonun. - T.:»O'zbekiston» 2007 yil 2 may.
14. O'zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari”gi Qonuni. -T.:»O'zbekiston» 2007.
15. O'zbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi Qonuni. 5-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi,

1998 yil, № 5-6, 91-modda; 1999 yil, № 9, 229-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006 yil, 10.10. O‘RQ-59, №-;).

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijtimoiy himoya yili” Davlat dasturi to‘g‘risidagi -T.;”O‘zbekiston” 2007 yil 23 yanvardagi PQ-573 qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 19 martdagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 28 yanvardagi “ Mexr-muruvvat yili” Davlat dasturi to‘g‘risidagi qarori.

19. XMT ning “Savdo va sanoat korxonalarida xodimlarni kasallikdan sug‘urtalash to‘g‘risida”gi 24-sonli, “Ayollarning xomiladorlik bola tug‘ishdan keingi mehnati to‘g‘risida”gi 3-sonli, “Nogironlik, qarilik, boquvchisiz qolganlik nafaqalari to‘g‘risida”gi 128-sonli va boshqa Konvensiyalari. Konvensi Rekomendatsi MOT. Jeneva. Mejdunarodniy Byuro Truda.CH.1-2, 1991.

### **3. Ilmiy, o‘quv adabiyotlar:**

1. Axmedov D.Q. Bozor iqtisodiga o‘tish sharoitida ijtimoiy himoya. // j. Demokratlashtirish va inson huquqlari. 2004.

2. Axmedov D.Q. Bozor munosabatlari sharoitida davlat ijtimoiy himoya siyosatining huquqiy jihatlari. Monografiya. T.; TDYUI, 2006.

3. Axmedov D.Q. Konstitutsiya va yoshlar. Yoshlarga oid davlat siyosatining xufufiy asoslarinit takomillashtirish mavzusidagi ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami.T.;- TDYUI, 2008.

4. Burxanxojaeva X.V. Axoliga savdo xizmati ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik.// J. Xo‘jalik va huquq. 2006., T.; TDYUI.2006.

5. Zokirov I.B., Baratov M.X. Voyaga etmagan bolalarning huquq va majburiyatlari. Xotin-qizlar va bollarning huquqlariga oid qonun kafolatlari.Ommabop yuridik ma’lumotnoma.T.; O‘zbekiston, 2000.

6. Inson huquqlari. O‘quv qo‘llanma. T.; O‘zbekiston, 1997.

7. Raxmonqulov X.R. Roli sushnost grajdanskogo pravovogo dogovora v uchloviyax rnochnoy ekonomiki, Monografiya. -T.; Fan., 1994.
8. Raxmonqulov X.R. Majburiyat huquqi. Darslik.- T.: TDYUI, 2005.
9. Razumov A.A. «Gosudarstvo i sotsialnaya zashita: problemi bednosti i bezrabortitsi». M., 1997.
10. Rjanitsina L.B. Sotsialnaya zashita: pyatiletie reform. –M.; 1997.
11. Ro‘ziev R.J. Milliy qonunchiligimizda ijtimoiy himoyaning huquqiy kafolatlarini takomillashtirish.Milliy qadriyatlar va shaxs ijtimoiy himoyasining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.T., IIV Akademiyasi, 2007.
12. Tursunov Y., Shoyimxonov Z. Ijtimoiy ta’minot huquqi. Darslik. T., TDYUI, 2003.
13. Usmonova M.A. Tadbirkorlik subyektlari va ijtimoiy himoya. O‘zbekistonda kichik va xususiy biznesni rivojlantirish muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. -T.; TDYUI, 2002
14. Usmonova M.A. O‘zbekistonda ijtimoiy himoya: Fuqarolik huquqiy jihatlari. Monografiya. T., TDYUI, 2005.
15. Akaeva M.A. Kontraktatsiya shartnomasi.. // j. Xo‘jalik va xuquq. 1999., № 2,b.13-14.
16. Shennaev X.M. Problemi stanovleniya straxovogo rinka v Uzbekistane. Avtoreferat dissertatsi na soiskani uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. M., Moskovskaya ekonomicheskaya akademiya im. N.V. Plexanova. 1996.
17. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining ikkinchi qismiga sharxlar.T.; “ Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi”.1998.
18. Yo‘ldasheva S. Muomalaga layoqatsiz shaxslar ishtirokidagi oldi-sotdi munosabatlarinng ayrim xususiyatlari.// Bozor iqtisodiyoti sharoitida msavdo munosabatlarini huquqiy ta’minlash muammolari mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.-T.; TDYUI, 2005.
19. Malein N.S. O sotsialnoy zashishennosti lichnosti v pravovom gosudarstve. // j. Gosudarstvo i pravo. 1999.

### **Internet ma'lumotlari:**

1. "NORMA" Axborot huquqiy tizimi. <http://www.norma.uz>.
2. <http://Allpravo.ru>
3. <http://Internet-law.ru>
4. <http://dissertation1.narod.ru/avtoreferats1>
5. <http://www.library.by/data>